

## BALIQCINING O'G'LI

**B**ir zamonlar bir baliqchi yashagan ekan-u, uning yakka-yu yagona o'g'li bo'lgan ekan. Baliqchi o'limi oldidan xotiniga shunday vasiyat qilibdi:

— Ko'p yashadim, lekin biron ro'shnolik ko'rmadim. Endi bir o'tinchim bor: yolg'iz o'g'limiz mening kasbimni olmasin, boshqa hunar o'rganib tirikchiligini qilsin.

O'g'li o'n olti yoshga to'lganda onasi uni yetaklab shaharga boribdi. Bola bozorda baliq tutadigan to'r ko'rib qolibdi. Keyin onasiga shu to'rni olib ber, deb yalina boshlabdi.

— Yo'q, o'g'lim, — debdi onasi, — buni so'rama. Otang o'limi oldidan o'g'lim baliqchi bo'lmasin, deb vasiyat qilgan, men unga so'z berganman.

Lekin o'g'il oyoq tirab turib olibdi. Onasining oyog'iga yiqilib, olib bersang ham, olib bermasang ham olib berasan, deb yolvora boshlabdi.

Onasi majbur bo'lib olib beribdi. O'g'li to'rni yelkasiga tashlab, quvona-quvona uyga kelibdi. Ertasi ertalab yigit baliq tutgani dengizga boribdi. To'rni suvga tashlab tortgan

ekan, unga bor-yo'g'i bir qurqaba ilinibdi. Qurbaqani dengizga qo'yib yuborib, yana to'rini suvga tashlabdi. To'rni tortsa, tag'in o'sha qurbaqa chiqibdi. Bola to'rni uchinchi bor dengizga tashlab tortgandayam o'sha qurbaqa chiqibdi. «Nimayam derdim, — deb o'ylabdi baliqchining o'g'li, — baliq yo'q ekan, o'rniga qurbaqa ilindi, nasibam shu shekilli».

Yigit qurbaqani olib uyiga kelibdi, uni eshikning tagiga tashlab, o'zi o'choqning oldiga borib o'tiribdi. Onasi cherkovdan kelib qarasa, o'g'li g'amginmish.

— Nimadan xafasan, o'g'lim? — deb so'rabdi onasi.

— Men xafa bo'lmay kim xafa bo'lsin, onajon! — deb javob beribdi o'g'li. — Ertalabdan beri to'rni dengizga tashlayman, faqat qurbaqa ilinadi.

— Ko'p kuyunaverma, bolam, nasibang shu bo'lsa, nimayam qilarding.

Ertalab onasi cherkovga, o'g'li dalaga ketibdi. Kechqurun kelib qarashsa, hovli-joylari top-toza, supurilgan-sidirilgan, idish-tovoqlar yuvilgan, ovqat tayyor emish. Uyda nima qilish lozim bo'lsa, hammasi bajarilganmish.

Ona-bola hayron qolishibdi. Buni kim qildi, deb rosa bosh qotirishibdi, lekin o'ylab o'ylariga yetisholmabdi.

Bunday hol ertasiga ham takrorlanibdi. Shunda o'g'il turib onasiga debdi:

— Onajon, men eshikning orqasiga yashirinib olay-da, bu ishlarni kim qilayotganini bilay.

Onasi cherkovga ketibdi, o'g'li eshik ortiga yashirinib olibdi. Oradan birmuncha vaqt o'tgandan keyin bola dengizdan tutib kelgan qurbaqa burchakdan chiqibdi-yu, o'choqning oldiga kelibdi. U yoq-bu yoqqa qarab, hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilgandan keyin bir vaqillagan ekan tovuqdek bo'lib shishibdi, ikkinchi bor vaqillagan ekan qo'ydek bo'libdi, uchinchi marta vaqillaganda terisi yorilib

go‘zallikda tengi yo‘q shunday bir qizga aylanibdiki, yemay-ichmay husnini tomosha qilib o‘tiraverish mumkin ekan.

Qiz ko‘rpa-to‘shaklarni yig‘ishtiribdi, paqirda suv olib kelibdi, idish-tovoqlarni yuvibdi, molxonani tozalabdi, keyin supurgini joyiga qo‘ymoqchi bo‘lganida yigitni ko‘rib qolibdi. Yugurib borib terisini kiymoqchi bo‘lgan ekan, yigit epchillik qilib qo‘lidan ushlab olibdi.

Qiz qo‘yvor deb yalinibdi, yolvoribdi, lekin bundan natija chiqmabdi. Yigit qurbaqa terisini olib o‘tga tashlab yuboribdi. Onasi cherkovdan kelib qarasa, o‘g‘li o‘choqning oldida o‘tirganmish, yonida esa bir chiroyli qiz bormish, uning go‘zalligidan atrofga yog‘du taralib turganmish.

Yigitning onasi o‘sha qurbaqa shunaqa go‘zal qizga aylanib qolganidan juda quvonibdi. Baliqchining o‘g‘li qizga uylanibdi. Keyin ular shohona turmush kechira boshlashibdi.

Ularning bir kampir qo‘shnisi bo‘larkan. O‘sha kampir shohning huzuriga borib shunday debdi:

— Dunyo turguncha turgin, shohim. Falon yerda bir onabola turishadi, ularning uyida shoh saroyida yashashga loyiq bir qiz bor. Askar yuborib oldirib kel.

Shoh shu zahoti askar to‘plabdi. U shunchalik ko‘p askar to‘plabdiki, ular o‘rmonga kirsam butun o‘rmon yer bilan yakson bo‘lishi, dengizga tushsa, dengizning suvi qurib qolishi mumkin ekan.

Yigitning yori qo‘shinni ko‘rib qo‘liga qilich olibdi-yu, hammasini qirib tashlabdi, bu yerdagi bo‘lgan voqeani shohga ma‘lum qilish uchun faqat bittagina jangchini omon qoldiribdi.

Shoh g‘azablanib, kampirning boshini tanidan judo qilmoqchi bo‘lgan ekan, kampir:

— Shohim, ikki barobar ko‘proq qo‘shin yuborgin, shunda u seniki bo‘ladi, — debdi.

Shoh ikki barobar ko'p qo'shin jo'natibdi. Ayol bu safar ham qo'luga qilich olib, shohning hamma qo'shinini qirib tashlabdi. Faqat borib shohga xabar berish uchun bittagina jangchini tirik qoldiribdi.

Shoh shuncha qo'shinini bekorga qirdirib yuborgani uchun kampirning kallasini olib tashlamoqchi bo'lib huzuriga chaqirtiribdi.

— Dunyo turguncha turgin, shohim. Sen yigitni og'ir ishga buyurgin, unga yetti tog' ortidagi qirq ayg'irning onasini olib kelasan degin, agar olib kelolmasa, kallasini tanidan judo qilasan, xotini o'zingga qoladi.

Shoh kampirning gapiga kirib yigitni saroyiga chaqiribdi. Unga yetti tog' ortidagi biyani olib kelasan, olib kelolmasang boshing tanangdan judo bo'ladi, debdi. Baliqchining o'g'li shohdan uch kunga muhlat so'rabdi. U uyiga g'amgin bo'lib qaytib kelibdi-yu, o'choqning oldiga o'tiribdi. Xotini eridan shohga nimaga kerak bo'lib qolibsana, namuncha xafasan, deb so'rabdi.

— Men xafa bo'lmay kim xafa bo'lsin? — deb javob beribdi yigit. — Shoh butun qo'shini bilan bajarolmaydigan ishni mening zimmamga yukladi. U yetti tog' ortidagi qirq ayg'irning onasini olib kelasana, bo'lmasa boshing ketadi, dedi.

— Shunga ham xafa bo'lib o'tiribsana, — debdi xotini. — Borib shohdan yetti toy paxta, yetti chelak shapob so'ra.

Yigit borib paxta va sharobni olib kelibdi. Xotini shunday debdi:

— Yetti kunda yetti tog' oshasan. Yettinchi tog'ning yonbag'rida bir buloq bor. Yetti toy paxtani buloqning ko'ziga tiqasan, buloqning ko'zi berkiladi. Keyin hovuzdan suvni chiqarib tashlab, o'rniga sharobni quyasan. Chanqab suv ichgani biya keladi, sharobni ichadi-yu, sarxush bo'lib qoladi.

Shunda sakrab uning ustiga minib olib, to'ppa-to'g'ri shohning saroyiga haydaysan.

Bu gaplarni eshitib baliqchining o'g'li yengil tortibdi, keyin yetti toy paxta bilan yetti chelak sharobni olib yo'lga tushibdi. Har kuni bittadan tog' oshib yetti kun deganda yettinchi toqqa yetibdi-yu, uning yonbag'ridagi buloqni ko'ribdi. Buloqning boshida biya tuyoqlarining izini ko'rib cho'chibdi. Baliqchining o'g'li buloqning ko'zini paxta bilan berkitibdi, hovuzdagi suvni chiqarib tashlab, o'rniga sharobni quyib to'ldiribdi.

O'zi esa yashirinib olibdi. Oradan biroz vaqt o'tgandan keyin biya ko'rinibdi. Uning tuyoqlarining ovozi ilgariroq eshitibdi. Biya kishnaganda tog'lar aks-sado beribdi. Baliqchining o'g'li daraxtlar orasidan qo'rqa-pisa qarasa, biyaning burun kataklaridan har nafas olganda o't chiqib turganmish. Buni ko'rib yigitning yuragi terakning bargiday titrabdi, joni tovoniga tushibdi.

Biya buloq bo'yiga kelibdi, keyin boshini cho'zib hovuzdagi sharobni icha boshlabdi. Ot qancha ko'p ichsa, chanqog'i shuncha ortaveribdi. U hovuzdagi sharobning bir tomchisini ham qoldirmay ichib qo'yibdi. Oxiri sarxush bo'lib qolibdi.

Shunda baliqchining o'g'li yashirinib olgan joyidan chiqibdi-yu, sakrab otning ustiga minib, shohning saroyiga qarab haydabdi. Yetti kunlik yo'lni bir kunda bosib o'tib, biyani shohga olib kelib beribdi.

Shoh qarasa, ayyorlik bilan yigitni qo'lga tushirib bo'lmaydigan, keyin uni chaqirib shunday debdi:

— Menga o'zimga munosib qayliq topib ber. Agar topolmasang o'z xotiningni berasan. Bo'lmasa, boshingni tanangdan judo qilaman.

Kechqurun baliqchining o'g'li uyiga yana g'amga botib qaytib kelibdi-yu, o'choqning oldiga o'tirib olibdi.

— Shoh nima dedi, nega bunchalik g'amginsan? — so'rabdi xotini.

— Men xafa bo'lmay, kim xafa bo'lsin? — debdi yigit. — Shoh yo menga munosib qayliq topasan, yo xotiningni berasan, deb aytdi.

— Shungayam xafa bo'lib o'tiribsanmi? Borib shohdan uzugini, itini, bitta pahlavoni bilan yettita katta qo'yini so'ra, keyin men senga unga qanday munosib yor topishni o'rgataman.

Baliqchining o'g'li xotini nima degan bo'lsa shunday qilibdi. Xotini unga shohga qanday qilib munosib qayliq topish yo'lini o'rgatibdi. Shunday qilib, yigit yo'lga tushibdi. Yo'lda qo'ylardan bittasini so'yib yebdi, dumbasini esa itga beribdi. Ikkinchi qo'yni pahlavonga so'yib beribdi. Pahlavon ham qo'yning go'shtini yeb, dumbasini itga beribdi. Ular yo'l yurishibdi, yo'l yurishsayam mo'l yurishibdi, oxiri bir ko'l bo'yida cho'zilib yotgan odamga duch kelishibdi. Bu odam ko'ldan suv icharmish-u, yana hadeb: «Chanqovdan yuragim kuyib ketyapti, suv beringlar, suv!» dermish.

Baliqchining o'g'li bilan pahlavon bu odamning butun boshli ko'lni ichib qo'yib yana suv so'rayotganiga hayron bo'lishibdi-da, unga qoyil qolishibdi.

— Shuyam qoyil qoladigan ishmi, — debdi haligi odam, — baliqchining o'g'liga qoyil qolsa bo'ladi. U, aytishlaricha, yetti tog' ortidan qirq ayg'irning onasini olib kelib shohga taqdim qilganmish. Qayoqqa ketyapsizlar? Meniyam olib ketmaysizlarmi?

— Nega olib ketmas ekanmiz, ikki kishi bor joyda uchinchi kishigayam ish topiladi, — deyishibdi ular.

Baliqchining o'g'li suvxo'rgayam bitta qo'yni so'yib beribdi. Suvxo'r qo'yning go'shtini yeb, dumbasini itga beribdi. Ular yana yo'lga tushishibdi.

Yo'l yurishibdi, yo'l yurishsayam mo'l yurishibdi. Oxiri yetti toshli bir tegirmonga yetib kelishibdi. Ichkari kirishsa, bir odam oxurning oldiga o'tirib olib toshlarning tagidan otilib tushayotgan unni kappalab og'ziga solarmish-u, yana hadeb:

— Ovqat bering, ochdan o'lay deyaqman! — deyarmish.

Baliqchining o'g'li bunga hayron bo'lib uning pahlavonligini maqtab qo'yibdi.

— Shuyam pahlavonlik bo'ptimi, — debdi unni kappalab tushirayotgan odam. — Haqiqiy pahlavon deb baliqchining o'g'lini aytsa bo'ladi. Aytishlaricha, u yetti tog'ning ortidagi qirq ayg'irning onasini tutib olganmish. Yo'l bo'lsin? Meni ham birga olib ketmaysizlarmi?

— Nega olib ketmas ekanmiz, — debdi baliqchining o'g'li.

— Uchta odam bor joyda to'rtinchi odamgayam ish topiladi.

Shunday deb bu pahlavongayam qo'y so'yib beribdi. Unxo'r qo'yning go'shtini yeb, dumbasini itga beribdi.

Yana yo'lga tushishibdi.

Ular yura-yura ikki tog'ning boshida turgan ikki odamning oldiga yetib kelishibdi. Qarashsa, u tog'dan bu toqqa arqon tortilgan bo'lib, arqonga bir tegirmon toshi o'tkazilgan ekan. Bir tog'ning boshidagi odam jimjilog'i bilan haligi toshni itarib yuborsa, tosh narigi tog'dagi odamning oldiga borarmish, u esa toshni bu yoqqa qaytarib yuborarmish.

Baliqchining o'g'li ularning bahodirliklariga qoyil qolib maqtab qo'yibdi.

— Shuyam bahodirlik bo'pdimi, — deyishibdi ular, — eshitishimizga qaraganda, baliqchining o'g'li yetti tog' ortidagi qirq ayg'irning onasini tutib kelganmish. Ana uni bahodir desa yarashadi. O'zlaringiz qayerga ketyapsizlar, bizlarni ham birga olib ketmaysizlarmi?

— Nega olib ketmas ekanmiz, — debdi baliqchining o'g'li, — to'rt kishi bo'lgan joyda olti kishigayam yumush topiladi.

U ikki qo'yni so'yibdi. Pahlavonlar qo'ylarning go'shtini yeyishibdi-yu, dumbalarini itga berishibdi, keyin yana yo'lda davom etishibdi. Ular yura-yura boshi bilan turgan bir odamning oldiga yetib kelishibdi. Undan nega bunday qilib turibsan, deb so'rashsa, kim qayerda nima deyayotganini eshityapman, debdi.

Baliqchining o'g'li uning ziyrakligiga qoyil qolib maqtab qo'yibdi.

— Shu ham maqtagulik ish bo'ptimi? — debdi u. — Men maqtasa arziydigan bir odamni bilaman. O'zi baliqchining o'g'li, u shohga yetti tog' ortidagi biyani olib kelibdi. O'zlar-ingiz qayerga ketyapsizlar? Meni ham birga olib ketmay-sizlarmi?

— Nega olib ketmas ekanmiz, — debdi baliqchining o'g'li. — Olti kishi bor joyda yetti kishigayam ish topiladi.

Shunday deb oxirgi qo'yini so'yib ziyrakni ovqatlantiribdi. U ham go'shtni yeb, dumbasini itga beribdi.

Keyin hammasi yo'lga tushib bir shohning saroyiga yetib kelishibdi-yu, sovchilar uchun qo'yilgan toshga o'tirishibdi. Nozirlar, vazirlar ulardan qayerdan keldingizlar, kimsizlar, deb so'rashibdi. Baliqchining o'g'li biz falon shohning odam-larimiz, qizingizning qo'lini so'rab keldik, debdi.

Bu haqda shohga ma'lum qilishgan ekan, shoh qancha oltin olib kelganini so'rabdi. Ular quruq qo'l bilan kelish-ganligini bilgandan keyin:

— Ovqatlantiringlar-da, yaxshilikcha jo'natib yuboringlar. Bunaqa yalangoyoqlar qizimning tengi emas, — debdi.

Ularga katta bir qozonda ovqat pishirib olib kelishibdi. Shunda unxo'r turib:



— Ovqatni men tatib koʻrmasimdan avval xoʻjayinim ogʻziga olmaydi, — debdi.

Qozonni oldiga tortib bir zumda uni boʻshatib, yalab-yulqab qoʻyibdi.

— Yana olib kelinglar, men uni hali yaxshilab yeb koʻrganim yoʻq.

Keyin ularning har biriga yetti qozondan ovqat olib kelishibdi.

Shoh bu haqda ertasiga eshitib qoʻrqib ketibdi. Ularga shunday bir qiyin ish buyurayki, hecham bajara olishmasin, deb oʻylab qoʻyibdi.

— Itlarini olib kelinglar, — debdi shoh. — Mening itim bilan olishsin.

Baliqchining oʻgʻli oʻz itini shohning itiga qoʻyib yuborgan ekan, birpasda uning boʻynidan boʻgʻib oʻldirib qoʻyibdi.

Shundan keyin shoh baliqchining oʻgʻliga pahlavoningni pahlavonim bilan olishtir, debdi. Baliqchining oʻgʻli qoʻygan pahlavon shoh qoʻygan pahlavonning qoʻlini bir siqib, suyaklarini sindirib yuboribdi. Shoh boʻgʻilib oʻlsin, deb ular yotgan xonaga suv qoʻyib yuborishni buyuribdi. Suvxoʻr eshikka turib olibdi-da, hamma suvni ichib yuboribdi. Biron chora koʻrib ularni yoʻqotolmagan shoh ovqatga zahar qoʻshib beribdi. Baliqchining oʻgʻli taomga uzukni tashlab yuborgan ekan, zahar ajralib chiqibdi. Ular ovqatni yemay nari surib qoʻyishibdi.

— Mayli, qizimni beraman, — debdi shoh. — Lekin sizlar uni koʻshki bilan birga olib ketishingiz kerak.

Shunda baliqchining oʻgʻli shoh yana qanday nayranglarni oʻylab chiqarmoqchi, deb ziyrakdan soʻrabdi. Ziyrak shoh bizdan qutulish uchun ertaga tong otishi bilan qizini oldimizga solib beradi, debdi.

Ertasiga tegirmon toshini bir-biriga itarib o'ynagan ikki pahlavon qizni ko'shki bilan ko'tarib ketmoqchi bo'lgan ekan, shoh ularni to'xtatibdi.

— Bildim, ko'tara olar ekansizlar, — debdi u, — yaxshisi qizimning o'zini olib ketaveringlar, ko'shki qolsin.

Pahlavonlar orqaga qaytishibdi. Yo'lda har kim o'z yurtida qolaveribdi. Baliqchining o'g'li bo'lsa, pahlavon va itni olib shoh saroyiga kirib boribdi.

Shoh bu vaqtda yigitning xotinini saroyga olib kelgan ekan.

U baliqchining o'g'li qaytib kelayotganini eshitibdi-yu, hammomga o't qalattirib suvni zaharlattiribdi. Keyin baliqchining o'g'liga yo'ldan kelding, hammomga tushib chiq, debdi. Yigit gap nimadaligini darrov sezib olibdi. Shohga hammomga birga tushaylik, bir o'zim cho'chiyapman, axir sendan boshqa ishonadigan odamim yo'q-ku, debdi. Hammomga kirishlari bilan baliqchining o'g'li uzukni suvga tashlagan ekan, hamma zahar suvning yuziga qalqib chiqibdi.

Shoh qo'rquvdan suvga tushib ketibdi va bir zumda bu dunyodan ko'z yumibdi. Baliqchining o'g'li shohning kiyimlarini kiyib taxtga borib o'tiribdi. Yigit shoh, xotini esa malika bo'libdi. O'zi olib kelgan qizni pahlavonga nikohlab beribdi. Keyin u onasiniyam saroyga olib kelibdi. Yurtga yetti kecha-yu yetti kunduz to'y qilib beribdi.

## **PARI QUSH**

**B**ir zamonlar bir podsho o'tgan ekan-u, uning uchta o'g'li bo'lgan ekan. Podsho qarib oxiri ko'r bo'lib qolibdi. Saroydagi azayimxonlar qanchalik o'qimasin, tabiblar qanchalik parvarishlamasin, shohning ko'zi ochilmabdi. Ana

shunda podsho katta o'g'lini huzuriga chaqirib shunday debdi:

— O'g'lim, yo'lga o'tlan, ko'zimni ochadigan shifobaxsh narsani topib kel.

— Otajon,— deb javob beribdi katta o'g'il. — Qayoq-qayam bora olardim, shu yoshga kelib uydan bir qadam ham jilmagan bo'lsam.

— Mening otimning tuyog'i tegmagan yerlarga bor. O'sha yerlarning bir siqim tuprog'i dardimga shifo bo'ladi.

Katta shahzoda otasining huzuridan chiqib otga minibdi-yu, hayyo-huv deb yo'lga tushibdi. Shahzoda yo'l yuribdi, yo'l yursayam mo'l yuribdi-da, oxiri bir sahroga yetib boribdi. Sahroning o'rtasida bir chashma bormish, uning tepasida esa qurigan daraxt turganmish.

— Qiziq, — hayron bo'libdi shahzoda. — Tagida suv bo'lsa-yu, daraxt qurib yotsa. Biroz uxlab hordiq chiqaray desam soyasiyam yo'q.

Shahzoda chakmonini daraxtga tashlab, soyasida uyquga ketibdi. Bir mahal shahzoda uyg'onib qarasa, daraxt ko'karib, shoxlarida choynakday-choynakday keladigan olmalar pishib yotganmish.

«Shu olmalardan bittasini otamga olib boraman, uning bu yerlarda bo'lmagani aniq», deb o'ylabdi shahzoda.

Keyin xurjunning ikkala ko'zini olmaga, ko'zasini suvga to'ldiribdi-yu, orqaga qaytibdi.

Podshoning mulozimlari shahzoda qaytib kelgani haqidagi xabarni unga quvonch bilan yetkazishibdi. Podsho bo'lsa: «O'g'limning qaytib kelgani rost, lekin quruq qo'l bilan qaytib keldi-da», debdi xo'rsinib.

Shahzoda otasining huzuriga kirib ta'zim qilib turibdi.

— Qani, o'g'lim, gapir-chi, uzoqlarga bordingmi?

— Otajon, — deb javob beribdi o'g'li, — men siz tugul, ota-bobolaringizning ham qadami yetmagan joylarga bordim.

— Gapirsang-chi, qayerlarda bo'lding axir?

— Men uzoq bir sah-rodagi chashmaga bordim...

— Shoshma, — gapdan to'xtatibdi otasi, — u yog'ini o'zim aytib bera qolay. O'sha chashmaning tepasida qurigan daraxt bo'lgan. Sen chakmoningni daraxtga tashlagansan-u, uyquga ketgansan. Uyqudan turib



qarasang, daraxt ko'karib, uning shoxlarida esa olmalar pishib yotibdi, shundaymi?

— Ha, topdingiz.

— O'g'lim, — debdi podsho, — men o'sha chashmada tushlik qilardim-da, kechki ovqatga uyga yetib kelardim. Boraver, olmalarining menga shifo bo'lmaydi.

Podsho huzuriga o'rtancha o'g'ilni chaqirib kelishibdi.

— Endi navbat senga, — debdi podsho.

— Otajon! — debdi o'rtancha o'g'il. — Katta akam udalay olmagan ish mening qo'limdan kelarmidi?

— Borasan, tamom-vassalom, — debdi podsho xo'rsinib.

O'rtancha o'g'il otasining huzuridan chiqibdi-yu, yo'lga tushibdi. U ham yo'l yuribdi, yo'l yursayam mo'l yuribdi. Oxiri akasi borgan chashmaga yetib kelibdi-yu, undan o'tib ketibdi. Nihoyat bir tepaga yetib boribdi. Bu tepa oddiy tepa bo'lmay, uning hammayog'i zumrad, olmos kabi qimmatbaho toshlardan iborat ekan.

«Otamning bu yerlarda bo'lmagani aniq, — deb o'ylabdi o'rtancha o'g'il. — Kelgan bo'lganda xazinasi boyib ketgan bo'lardi».

U xurjunning ikkala ko'zini qimmatbaho toshlarga to'ldiribdi-yu, orqasiga qaytibdi.

Yana shohning xizmatkorlari unga o'g'ling qaytib keldi, degan quvonchli xabarni yetkazishibdi. Shoh: «Qaytib kelishga keldi-ya, lekin quruq qo'l bilan qaytib keldi-da», deb xo'rsinib qo'yibdi. O'rtancha o'g'il otasining huzuriga kiribdi-yu, ta'zim qilib qo'lini o'pibdi. Shoh o'g'lini quchibdi.

— Qani, o'g'lim, so'zla-chi, qaysi yurtlarga bording?

— Otajon, — debdi o'rtancha o'g'il, — men nafaqat siz, balki ota-bobolaringizning ham qadami tegmagan joylarga bordim.

— Xo'sh, qayerlarga bording?

— Men yura-yura bir tepalikka yetib bordim...

— To'xta, — o'g'lining gapini bo'libdi podsho. — Qaysi tepalikka borganingni bilaman. Sen u yerdan zumrad, olmos-u marvaridlar olib kelgansan, to'g'rimi?

— To'g'ri, otajon.

— Xurjunni olib kelinglar, ko'raylik-chi, unda nimalar bor ekan, — debdi podsho.

Xurjunni olib kelishibdi. Ochib qarashsa, bir xurjun oddiy chaqmoqtoshmish.

— Bor, o'g'lim, boraver, — debdi podsho. — Endi kenja o'g'limni chaqiringlar, — deb buyuribdi podsho.

Kichik shahzoda kirib kelib ta'zim qilibdi.

— O'g'lim, — debdi podsho, — endi o'zing yo'lga tushmasang bo'lmaydiganga o'xshaydi.

— Otajon, — debdi shahzoda. — Yoshman, uydan bir qadam nariga chiqmagan bo'lsam, qayoqqayam borardim?

— Boshqa iloj yo'q, borishing kerak, — debdi podsho.

Kichik shahzoda otasining huzuridan xafa bo'lib chiqibdi-yu, boqqa kirib, hovuzning bo'yida uxlab qolibdi. Keyin tush ko'ribdi. Tushida birov: «Nega bu yerda yotibsan?» deb so'rabdi. «Boshim qotgan, — debdi shahzoda. — Otam uzoq yo'lga jo'natyapti, hech qayerni ko'rmagan bo'lsam, qayoqqa borishni bilmasam». «Xafa bo'lma, — debdi haligi odam. — Otangning oldiga borgin-da, otini, qilichini, barmog'idagi uzugini so'rab ol».

Kichik shahzoda uyg'onib otasining huzuriga kirib borib, debdi:

— Otajon, menga otingizni, qilichingizni va barmog'in-gizdagi uzugingizni berib turing.

Podsho suyunib ketib o'g'lini quchib o'pibdi.

— O'g'illarimning ichida bahodiri sen ekansan, — debdi u. — Topib kelishingga ishonaman.

Ertasiga ertalab podsho o'g'liga barmog'idagi uzugini, belidan qilichini yechib beribdi. Otini egarlab yuganlashga buyuribdi. Shahzoda sakrab otga minibdi-yu, yo'lga ravona bo'libdi. U otasiga o'xshab ertalab nonushtani uyda qilibdi. Tushlikni chashma tepasidagi daraxt tagida qilibdi, kechqurun javohirlarga to'la tepalikka yetib boribdi. Yo'lda to'xtamay ketavermoqchi bo'lgan ekan-u, birdan biri osmonda, biri yerda ikki quyoshni ko'rib qolibdi. «Qayerlarga kelib qoldim, — deya hayron bo'libdi shahzoda, — ikkita quyosh, qiziq bo'ldi-ku».

Otining boshini qo'yib ketayotgan ekan, yo'lda yarqirab turgan pat ko'rib qolibdi. Otdan tushib, patni olibdi-yu, qalpog'iga uqa qilib qadab qo'yibdi.

— Patni tashla, — birdan ot tilga kiribdi.

— Nega? — deb so'rabdi shahzoda.

— U boshingga ko'p musibatlar soladi.

— O'zi kichkinagina pat bo'lsa, qanday musibat solishi mumkin?

Ot o'z gapini uch marta takrorlabdi, lekin shahzoda uning gapini qulog'iga olmabdi.

— Men seni ogohlantirib qo'ydim, — debdi oti. — Endi o'zingdan ko'r.

Shahzoda shu ketgandan otining boshini qo'yib bir podsholikka yetib boribdi. Podshoga mamlakatimizga bir yigit kirib keldi, bir quyosh osmonda nur sochib tursa, ikkinchi quyosh uning qalpog'ida yarqirayotir, deb xabar berishibdi.

— Olib kelinglar uni, — deya buyuribdi podsho.

Shahzodani shohning huzuriga eltishibdi.

— Kimsan? — so'rabdi podsho.

— Sayyohman, sizning yurtigingzni tomosha qilgani keldim.

— Qalpog'ingda yarqirayotgan nima u? — so'rabdi podsho.

— Bumi? Bu oddiy pat, yo'ldan topib oldim.

— Bu yoqqa ol, bir ko'ray-chi, — debdi shoh.

Shahzoda patni olib podshoga uzatibdi. Podsho xursand bo'lganidan o'zini yo'qotib qo'yayozibdi.

— Rahmat, — debdi u shahzodaga, — endi boraver, xudo yor bo'lsin.

Shahzoda uning huzuridan chiqib ketibdi. Podsho bo'lsa patga qarab to'yasmish. Oxiri butun podsholik ishlarini o'z holiga tashlab, arz bilan kelganlarni qabul qilmay qo'yibdi.

Bir kampir tovug'ini o'g'irlatib qo'yib shikoyat qilib kelgan ekan.

— Jo'na hozir, kampirsho, o'zimning ishim o'zimga yetarli, — deb haydab chiqaribdi podsho.

Kampir qarasa, shoh patga mahliyo bo'lib o'tirganmish.

— Shohim, — debdi kampir, — bittagina patga shunchalik mahliyosan, shu pati tushib qolgan qushning o'zini ko'rsang unda nima bo'larkansan?

— Onajon! — debdi shoh. — Bu qushni kim ham menga olib kelib bera olardi?

— Shu patni kim keltirgan bo'lsa, o'shaning o'zi olib keladi, — deb javob beribdi kampir.

Podsho shu zahoti shahzodani tutib keltirishga buyruq beribdi. «Podsho patimni tortib oldi-yu, evaziga hech nima bermadi. Mana endi biron nima tortiq qilsa kerak, — deb o'ylabdi shahzoda. — Beradigan pulini boshimga uramanmi?» Shahzoda shohning huzuriga kirib yetti bukilib ta'zim qilibdi:

— Sen patni keltirgan eding, endi o'sha pati yulingan qushning o'zini topib kelasan, — debdi shoh.



— Men bir bechora sayyohman, — debdi shahzoda, — bu o'lkalarda birinchi marta bo'lishim. O'sha qushni qayerdan topaman?

— Bunisi bilan mening ishim yo'q. Qayerdan bo'lsayam topasan. Topmasang kallangdan judo bo'lasan!

Shahzoda qayg'uga botibdi, uning ko'z yoshlarini ko'rgan ot debdi:

— O'sha pat boshingga musibatlar keltiradi, deb aytuvdim-ku axir, quloqqa olmading. Endi bundan ham battar musibatga tushasan.

— Endi foydasi yo'q! Boshimga musibat tushib bo'ldi. Yordam ber.

— Bo'pti, xafa bo'lma, hozircha yotib uxla, — debdi ot. — Ertalab bir ilojini qilarmiz.

Shahzoda yotishga yotibdi-yu, ertalabgacha mijja qoq-mabdi.

— Endi qayoqqa boraman? — deb so'rabdi u ertalab otdan.

— Tizginni o'z holiga tashlab qo'y, o'zim topib boraman.

Ular yo'l yurishibdi, yo'l yurishsa ham mo'l yurishibdi. Oxiri bir o'rmonga yetib kelishibdi-yu, ot shahzodaga debdi:

— Mana shu o'rmonning o'rtasida ulkan bir chinor bor. O'sha chinorning tagida marmar hovuz bor. Hovuzning labidan bir chuqur qaziysan-da, ichiga tushib berkinib yotasan. Har juma bu yerga cho'milgani pari qush keladi. Bugun — juma. U keladigan kun. Keyin qanotini yechib hovuz bo'yiga tashlaydi-da, suvga tushib cho'mila boshlaydi. Sen tegma, cho'milib bo'lishini kutib tur. Pari suvdan chiqib qanotlarini silab kiya boshlaganda oyoqlaridan mahkam ushlab ol.

Shahzoda ot aytganday qilib chuqur qazibdi-yu, hovuz bo'yida yashirib yotibdi. Pari uchib kelib qanotini tashlabdi, cho'milibdi. Keyin qanotini kiyayotganda shahzoda bir sakrab qushni mahkam ushlab olibdi.

— Qo'yvor meni, yigitcha, yaxshi bo'lmaydi, — debdi pari.

— Mendan o'pkalama, pari, men ham dunyoda yashagim keladi. Seni shohga olib bormasam boshimdan judo bo'laman.

— O'zing bilasan, — debdi pari, — endi o'zingdan ko'r. Shahzoda otga minib, qushni podshoga eltib beribdi.

— Rahmat senga, — debdi shoh, — yo'lingga ketaver endi, xudo yor bo'lsin.

Podsho qushni qafasga solib qo'yibdi, qush bo'lsa sayramabdi, bu holdan podsho qayg'uga botibdi. Nihoyat u qushga debdi:

— Nima desang bajaraman, sayrasang bo'ldi.

Qush tilga kiribdi.

— Shohim, — debdi u. — Men qush emas, dunyoda tengi yo'q go'zal qizman. Agar xohishimni bajarsang, qanotimni tashlayman-u, malika bo'laman.

— Tila tilagingni, bajaraman, — debdi podsho.

— Mening bir kanizim bor edi, o'shani olib kel. U Oq dengiz bilan Qora dengizning oralig'idagi Qizil devning qo'lida. Agan uni olib kelolsang, senga xotin bo'laman.

— Uni kim olib kela olishi mumkin?

— Meni tutgan yigit olib kela oladi.

Shahzodani yana podsho huzuriga sudrab kelishibdi.

— Sen menga Qora dengiz bilan Oq dengiz oralig'idagi Qizil devning qo'lida azob chekayotgan qizni olib kelishing kerak.

— Shohim, — debdi shahzoda. — Bunday mushkul ishni qanday qilib bajaraman?

— U yog'i bilan ishim yo'q, — podshoning jahli chiqibdi.

— Qizni olib kelmasang tanangdan boshingni judo qilaman.

Shahzoda battar qayg'uga botib otning oldiga qaytib kelibdi.

— Tag'in nima bo'ldi? — deb so'rabdi ot.

— Ish chatoq, — debdi shahzoda. — Shoh menga bu safar Qora dengiz bilan Oq dengiz oralig'ida istiqomat qiluvchi Qizil devning qo'lida azob chekayotgan qizni olib kelishni buyurdi.

— Xafa bo'lma, — debdi ot. — Yotib uxla, ertalab bir ilojini qilarmiz.

Shahzoda yotib tong otguncha mijja qoqmabdi.

— Endi qayoqqa bordim? — deb so'rabdi otdan.

— Tizginimni qo'yvor, o'zim olib boraman.

Ot yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Oxiri bir dengizga yetib kelibdi-yu, shahzodaga qarab debdi:

— Otangning qilichi chaqmoqdan yasalgan... Agar qilichni peshanangga qo'yib damini dengizga qaratsang, dengiz orqaga chekinadi. Narigi qirg'oqqa o'tganingdan keyin bundoq qarasang, tutun chiqib turgan g'orga ko'zing tushadi. G'orning og'ziga borib: «Dev, bu yoqqa chiq, urushamiz!» — deb qichqirasan. Dev seni ovqatlanib ol, deb g'orga taklif qiladi, lekin kira ko'rma. Uch marta chaqirganingdan keyin o'zi chiqib keladi. Chiqishi bilan kallasini shartta uzib tashla. Dev yerning qa'riga tushib ketadi. Keyin g'orga kirib qizni olasan-u qilichning damini dengizga qaratsang, dengiz yana orqaga chekinadi, sen buyoqqa o'tib olasan-da, qizni shohga eltib berasan.

Shahzoda otning aytganidek qilib, devni yengibdi-yu, qizni olib shohga eltib beribdi.

— Rahmat, — debdi shoh. — Boraver, xudo yor bo'lsin.

— Sen aytgan qiz shumi? — deb so'rabdi shoh paridan.

— Ha, shohim, shu.

— Shartingni bajardim, endi sen ham ustingdagi qanotingni yechib tashla.

— Shohim, agar siz meni patlarsiz ko'rsangiz o'lasiz.

— Unda qanday qildim? — debdi shoh.

— Uning yo‘li bunday, — debdi pari. — Qizil dengizda o‘t purkovchi qirqta biya yashaydi. O‘sha biyalarning sutiga cho‘milsangiz qushga aylanasiz, keyin birga turmush quramiz, bolalarimiz ham qush bo‘lib tug‘iladi.

— Biyalarni kim olib keladi?

— Meni va kanizimni olib kelgan yigit keltiradi.

Shahzodani yana podsho huzuriga sudrab keltirishibdi.

— Sen Qizil dengizga borib u yerdan qirqta biyani olib kelishing kerak. Men ularning sutiga cho‘milaman.

— Yolg‘iz o‘zim qanday qilib qirqta biyani haydab kelaman?

— e‘tiroz bildirmoqchi bo‘libdi shahzoda.

— Buyog‘i bilan ishim yo‘q, — debdi shoh. — Agar olib kelmasang, tanangdan boshingni judo qilaman.

Shahzoda g‘am-alamga botib qaytib kelibdi.

— Yana nima bo‘ldi? — deb so‘rabdi ot.

Shahzoda bo‘lgan voqeani unga aytib beribdi.

— Xafa bo‘lma, shahzoda, — debdi ot. — Bu safar senga emas, menga qiyin bo‘ladi. Borib podshoga ayt, Qizil dengizning qirg‘og‘iga qirq o‘ram jun, qirq o‘ram namat, qirq o‘ram teri keltirib qo‘ysin.

Shoh dengiz bo‘yiga qirq o‘ramdan namat, teri, jun keltirib qo‘yishni buyuribdi. Shahzoda otga minib yo‘lga tushibdi. Dengiz bo‘yiga yetib kelishgandan keyin ot shahzodaga shunday debdi:

— Gapimga quloq sol, shahzoda, Qizil dengizda qirqta emas, o‘ttiz to‘qqizta biya bor. Ularning biri mening onam, qolganlari singillarim bo‘ladi. Ularning ichida yagona ayg‘ir menman. Bir kuni onam bilan urishib qoldim-u, mana, o‘ttiz yil otangning xizmatidaman. Agar onamning qo‘liga tushib qolsam, meni burdalab tashlaydi. Men qirg‘oqqa yotib olaman, sen esa ustimga avval junni yopasan, uning ustiga namatni

tashlaysan, oxirida teri bilan o'raysan. O'zing esa yonimda berkinib turasan. Men ovoz chiqarib sekin kishnayman, dengizda bo'ron ko'tariladi. Bundan qo'rqma. To'lqinlar orasidan mening onam bilan singillarim chiqib kelishadi. Ularning yig'lab ko'z yoshi to'kadiganlari singillarim, menga hamla qiladigani onam bo'ladi. Onam avval ustimdan terilarni olib tashlaydi, keyin namatni. Sen indamay turaver. So'ng u junni olishga o'tadi. Junning yarmini olganda biroz charchaydi va to'xtab dam ola boshlaydi. Ana shunda sen bir sakrab onamning ustiga minib ol. Ehtiyot bo'l, yolidan mahkam ushla. Onam darg'azab bo'lib ketadi. Seni quyoshda kuydirib tashlayman, deb osmonga uchadi. Sen esa darrov uning qorniga tushib ol. Yerga urib seni majaqlab tashlayman deb o'zini pastga uradi, sen yana ustiga chiqib ol. Keyin uni yaxshilab savalagin-da: «Men sening egangman» degin.

Shundan keyin onam amringga bo'ysunib aytganingni bajaradi. Uning ketidan men va qolgan singillarim ham amringga bo'ysunamiz.

Shahzoda ot nima degan bo'lsa, bekam-u ko'st bajaribdi. Biyalarni haydab kelib podshoning otxonasiga bog'labdi.

— Endi shohim, — debdi pari qush, — ularni sog'ishga buyurgin-da, sutiga cho'milgin.

— Kim ularni sog'adi? —so'rabdi shoh.

— O'sha haydab kelgan yigit.

Shahzodani yana shohning qoshiga boshlab kelishibdi. Shunda ot debdi:

— Shahzoda, meni birga olib ket. Sog'ishingdan oldin otangning uzugini ipga bog'lab qozonga tashlab qo'y. Keyin biyalarni birin-ketin olib kelib qozonning ustida sog'aver. Hamma biyani sog'ib bo'lganingdan keyin qozonda cho'milib ol. So'ng uzukni olib yaxshilab art. Barmog'ingga taqib shohga odam yubor. Shoh qozonga tushishi bilan sut olov

olib u yonib ketadi. O'zing esa uning kiyimlarini kiyib saroyga qaytgin-da, taxtga o'tir.

Shahzoda otning aytganlarini bajaribdi. Qush bo'lsa podshoning kuyib o'lganini eshitibdi-yu, qanotlarini tashlab yuboribdi va go'zal bir qizga aylanibdi.

— Bularning barini seni deb qildim, — debdi qiz shahzodaga. — Endi sen podshohsan, men esa malika.

Xalq saroyda qanday hodisalar bo'lib o'tganini bilmabdi ham. Yangi podsho bir necha oy mamlakatni boshqaribdi, keyin birdan nima maqsadda yo'lga chiqqani esiga tushib qolibdi.

— Nega xafa ko'rinasan, shohim, — debdi malika. — Mamlakatga podshoh bo'lganing ko'nglingga o'tirishmadimi yoki men senga yoqmadimmi, uzzu-kun ko'z yosh to'kasan.

— Malikam, sevikli yorim, — javob beribdi shoh. — Mening ham otam shoh. Lekin u qariganda ko'r bo'lib qolgan. Meni ko'zni ochadigan dorivor topib kelish uchun yuborgan edi. Men esam buni unutib yuborib, shoh bo'lib o'tiribman. Hozir otam tirikmi, yo'qmi bilmayman.

Malika shohga debdi:

— Xotirjam bo'l, shohim. Sening otang o'n yil meni tutmoqchi bo'lib urinib oxiri ko'r bo'lib qolgan. Agar men qonimdan uning ko'ziga jinday surtsam, shu zahoti ko'zi ochilib ketadi. Agar shunga qayg'urayotgan bo'lsang, yo'l hozirligini ko'r, otangning oldiga ketdik.

Yosh podsho butun xaloyiqni chaqirib katta ziyofat beribdi-yu, shunday debdi:

— Endi o'zlaringga boshqa podsho tanlanglar, men uzoq yurtlarga ketyapman, qaytish-qaytmasligim dargumon.

Xalq o'ziga boshqa podsho saylabdi. Shahzoda bo'lsa xotini bilan oddiy kiyim kiyib olibdi. Keyin xalqqa ta'zim qilibdi-yu, qirq biyani haydab yo'lga tushibdi.

Malika shahzodaning otini, shahzoda biyalarning onasini minibdi.

Shahzoda otasining mamlakatiga yetib kelgandan keyin birinchi uchragan cho'ponga qarab:

— Saroyga yugur, podshoga o'g'li qaytib kelayotgani xabarini ber, — debdi.

Cho'pon saroyga yugurib kelib shohga:

— Suyunchi ber, shohim, o'g'ling safardan qaytdi, — debdi.

Shoh bu so'zlarni eshitib:

— Yana kimlarni boshlab kelyapti? — deb so'rabdi.

— U o'zi bilan qirqta biya va yana bir go'zallikda tengi yo'q qizni olib kelyapti.

— Xudoga shukr! — debdi shoh va cho'ponga bo'yi baravar tilla berishlarini buyuribdi.

Shahzoda saroyga kirib otasining qo'lini olibdi. Otasi uni o'pibdi. Yosh malika qo'lini qonatib shohning ko'ziga surgan ekan, uning ko'zi shu zahoti ochilib ketibdi. Shoh taxtdan turib yosh malikaning peshanasidan o'pibdi. Tojini olib kenja o'g'lining boshiga kiydiribdi-da, shunday debdi:

— Bundan buyon mana shu o'g'lim shoh, kelinim malika bo'ladi.

Ular murod-maqсадiga yetgan ekan, sizlar ham yetasizlar.

Osmondan uchta olma tushibdi: biri ertak aytganga, qolgan ikkitasi uni tinglaganga tegibdi.

## **SUV ALVASTISI**

**B**ir zamonlar bir er-xotin yashashgan ekan-u, ularning bitta-yu bitta o'g'illari bo'lgan ekan. Kunlardan bir kuni otasi o'g'lini biror hunarga o'qitmoqchi bo'libdi. Ular

daryoning bo'yiga kelishib, miriqib suv ichishibdi. Chol huzur qilganidan:

— Oh-ho! Shunaqayam totli suv bo'ladimi? — deb yuboribdi. Shu zahoti suv alvastisi paydo bo'libdi:

— Meni nega chaqirding, saxovatli yo'lovchi? Yo'l bo'lsin? — deb so'rabdi.

— O'g'limni o'qitmoqchiman.

Suv alvastisi:

— Menga shogirdlikka bera qol. Men zo'r hunarmandman, — debdi.

Ota o'g'lini suv alvastisiga shogirdlikka beribdi, u bo'lsa bolani suv ostidagi uyiga olib tushibdi. Ota orqasiga qaytib ketibdi.

Oradan bir yil, ikki yil o'tibdi. Er-xotin kambag'allashib ketibdi. Ota daryo bo'yiga boribdi, suvdan miriqib ichibdi-yu: «Oh-ho!» debdi. Shu zahoti suv alvastisi paydo bo'libdi.

— Qiynalib qoldik. O'g'limni olib ketgani keldim, borib ro'zg'orga yordam bersin, — debdi chol.



— Hali hamma narsani o‘rganib olgani yo‘q, — deb javob beribdi alvasti.

— Unda, biron yordaming tegar, u yog‘ini eplashtirarmiz. Suv alvastisi unga bir dasturxon olib chiqib berib debdi:

— Dasturxonni qoqib yoyishlaring bilan uning usti noz-ne‘matlarga to‘lib ketadi. Birovga muhtoj bo‘lmay yashay-verasizlar.

Ota dasturxonni qo‘ltiqlab uyga kelibdi. Uni qoqib yerga yoygan ekan, usti dunyodagi bor noz-ne‘matlarga to‘lib ketibdi. Shunday qilib, er-xotin yegani oldida, yemagani ketida, maza qilib yashayverishibdi.

Oradan birmuncha vaqt o‘tgandan keyin xotin eriga boyning xotini mehmonga chaqirmoqchiman, debdi.

Er: — Qo‘y, chaqirma, dasturxonimizni ko‘rib qolib olib qo‘yadi, — debdi.

Er qanchalik qarshilik ko‘rsatmasin, xotini o‘z so‘zida turib olibdi. Keyin boyning xotini bilan birga qo‘ni-qo‘sh-nilariniyam mehmonga chaqiribdi. Ayollar stol atrofiga o‘tirishgandan keyin bir-birlariga qarab:

— O‘zlarining qoqqanda qozig‘i yo‘q edi, shuncha odamni qanday qilib mehmon qilisharkin, — deya shivirlasha boshlashibdi.

Tushlik mahali bo‘libdi-yu, xotin dasturxonni qoqib o‘r-taga yoygan ekan, stol usti turli-tuman noz-ne‘matlarga to‘lib ketibdi. Mehmonlar rosa yeb-ichishibdi. Lekin boyning xotini dasturxonni qanday qilib olib ketsam, degan o‘yda undan ko‘z uzolmay qolibdi. Keyin xizmatkorini imlab chaqirib debdi: «Bizdayam xuddi shunaqa dasturxon bor, tezda olib kel, almashtirib olamiz». Xizmatkor bekasining aytganlarini bekam-u ko‘st bajaribdi. O‘z dasturxonini olib kelib, ayolning ochil dasturxoniga almashtirib qo‘yibdi. Mehmondorchilik tugabdi, mehmonlar uy-uylariga tarqalishibdi.

Kechga borib er-xotinning qorni ochibdi. Dasturxonni qoqib unday ham qilib ko'ribdi, bunday ham, lekin biron yegulik paydo bo'lmabdi. Ular boyning xotini ochil dasturxondan ko'z uzolmay o'tirganini sezishgan ekan. Yana daryoga borib suv ichishibdi-yu, «Oh-ho!» deyishibdi. Suv alvastisi chiqib kelibdi.

— Sizlarga nima kerak?

— Qornimiz och.

— Dasturxon bergandim-ku, axir?!

— Boyning xotinini mehmonga chaqirgandik, olib ketibdi.

Suv alvastisi ularga qovoqdan yasalgan ko'za beribdi-da, debdi:

— Manavi ko'zani olinglar-da silkitinglar. Uning ichida yong'oq po'choqlari bor, ular bir zumda otliq jangchilarga aylanadi-yu, boyga hujum qilishadi.

Er-xotin ko'zani olib uyga qaytishibdi. Kelib uni silkitishgan ekan, askarlar sakrab-sakrab turib boyga qarshi jang boshlashibdi. Biri borib devorni buzibdi, biri eshikni. Odamlar nima gap deb qochib qolishibdi.

Ular bo'lsa: «Biz bekam olib ketgan ochil dasturxonni olgani keldik», deyishibdi. Boy qarasa, ish chatoq, noiloj dasturxonni olib chiqib beribdi. Suvoriylar yana o'z joylariga qaytishibdi. Er yong'oq po'choqlarini ko'zaga qamabdi-yu, devorga osib qo'yibdi. Shu bilan askarlar ham g'oyib bo'lishibdi. Er-xotin yana qadimgiday maishatda yashay-verishibdi.

Oradan bir necha yil o'tibdi. Bir kuni er-xotin o'g'limiz biron hunar egasi bo'lgan bo'lsa kerak, endi olib kelaylik, deya gap ochib qolishibdi. Ular daryoga kelib suvdan qonib ichishibdi-da: «Oh-ho!» deyishibdi. Shu on suv alvastisi chiqib:

— Nima xizmat bor? — deb so'rabdi.

— O'g'limizni ber, — deyishibdi er-xotin. — Biron hunarni egallagan bo'lsa yaxshi, bo'lmasa shunisigayam rahmat.

— Borib ko'ray-chi, o'rgandimi-yo'qmi, — debdi alvasti va ko'zdan yo'qolibdi.

Alvastining bir qizi bor ekan. U yigitga qarab shunday debdi: «Anuv kesilgan kallalarni ko'ryapsanmi, son-sanoqsiz, bu otamning ishi, o'z shogirdlarining kallalarini kesib tashlayvergan. Sendan biron hunarni o'rgandingmi deb so'rab qolsa, hali o'rganganim yo'q, deb javob bergin. Bo'lmasa, kallangdan judo bo'lasan». Alvasti qaytib kelib undan:

— Hoy yigit, saboqni tugatdingmi, uyingga ketging kelyaptimi? Ota-onang seni olib ketgani kelishibdi, — deb so'rabdi.

Yigit: — Hali to'la-to'kis saboq olganim yo'q, — deb javob beribdi.

Shunda alvasti yigitni saboq olganini, uyiga qaytmoqchi bo'layotganini tan olsin deb do'pposlay ketibdi. Shogirdi esa hecham bo'yniga olmabdi. Alvasti qarasa, bo'yniga qo'yolmaydigan. Keyin yigitni ota-onasiga qaytarib beribdi.

Ular uyga qaytishibdi. O'g'il yo'lda ota-onasiga: «Sizlar boraveringlar, men yetib olaman», debdi. O'zi esa ajoyib duldulga aylanibdi-da, otasining oldidan yugurib o'tayotib, unga salgina tegib ham ketibdi. Keyin yana orqaga qaytib, o'z qiyofasiga kiribdi va otasiga yetib olibdi. Otasi o'g'liga shunday debdi: «O'g'lim, sen orqada qolganingda bir ajoyib ot shundoqqina yonimdan yugurib o'tib ketdi. Attang, sen bo'lganingda tutib olgan bo'lardik».

Ular yo'lda davom etishibdi. O'g'il otasiga yana debdi: «Sizlar boraveringlar, men yetib olaman».

Bu safar u chiroyli tuyaga aylanibdi-da, o'tib borayotib otasiga ozgina tegib ham ketibdi. Shu alfozda u uyga

yetguncha har xil hayvonlarning qiyofasiga kirib boraveribdi. Uyga kelgandan keyin sirni ochibdi: «Dada, gapimga quloq soling. Yo'lda har xil hayvon qiyofasiga kirib yoningizdan o'tgan men bo'laman. Bu mening hunarim. Meni bozorga olib borib sotasiz. Faqat yuganimni olib qoling. Yugan bilan sotvorsangiz, bilib qo'ying, qaytib kelolmayman».

Shunday qilib, u ajoyib jayronga aylanibdi-yu, otasi bozorga olib borib yugansiz sotibdi. Kechqurun esa o'g'li uyiga qaytib kelibdi. Bir kuni yigit yana otga aylanibdi, otasi sotish uchun bozorga olib ketibdi.

Shu kuni bozorga alvasti ham kelgan ekan, o'z shogirdini, uning otasini ko'rib, bu sehrli ot ekanligini bilib qolibdi. Ana shundagina shogirdi nimalarga qodir ekanligini bilibdi. Alvasti yigitning otasi oldiga kelgan ekan u tanimabdi.

— Oting qancha? — deb so'rabdi alvasti.

— Bir yuz ellik tanga.

— Yugani bilan sota qol.

— Yo'q, yugani bilan sotmayman.

— Yugani bilan sotsang ikki yuz tanga beraman.

Shuncha pulni eshitib otaning ko'zi o'ynab ketibdi-yu, otni ikki yuz tangaga sotvoribdi.

Alvasti otni jilovidan ushlab suv osti qasriga olib kelibdi, qoziqqa mahkamlab bog'lab qiziga debdi: «Qarab tur, o'q-yoyimni olib kelib o'ldiraman». Otasi o'q-yoy olib kelgani chiqishi bilan qiz otni yechvoribdi. Yigit chumchuqqa aylanibdi-yu, uchib ketibdi. Alvasti kelib qarasa, ot yo'q.

U ham shu zahoti burgutga aylanibdi-yu quvib ketibdi. Chumchuq qarasa, orqasidan burgut quvib kelayotibdi. U shu on pastda to'y bo'layotganini ko'rib qolibdi, keyin chiroyli bir gulga aylanib mehmonlardan birining qo'liga tushibdi. Burgut soz bilan kuylayotgan mashshoqqa aylanibdi.

Mehmonlar gulni qo'ldan qo'lga o'tkazishib hidlay ketishibdi. Gulni hidlash navbati mashshoqqa kelibdi. U gulni olib yerga tashlabdi-yu, oyoqlari bilan ezibdi. Gul shu on bir siqim tariqqa aylanib sochilib ketibdi. Tariqning bir donasi mehmonlarning boshmog'iga ilashib qolibdi.

Mashshoq bir zumda bola ochgan ona tovuqqa aylanib tariqni terib yeb qo'yibdi. Boshmoqqa ilinib qolgan tariq darrov tulkiga aylanib qolibdi-yu, ona tovuq bilan jo'jalarni yeb qo'yibdi. Keyin inson qiyofasiga kirib uyiga qaytib kelibdi.

Osmondan uchta olma tushibdi: bittasi ertakchi boboga, ikkinchisi eshitganga, uchinchisi hammaga.

## **BODIKAN VA BOXUXON**

**B**u voqeaning bo'lgan-bo'lmagani yolg'iz xudoga ayon, aytishlaricha, bir shoh o'tgan ekan. Uning qirqta o'g'li bo'lgan ekan, qaysi bir o'g'li bo'y yetsa huzuriga chaqirarkanda, qo'rqmas, ishbilarmon bo'l, o'zingga qayliq tanlab kel, deb uzoq-uzoq o'lkalarga, mamlakatlarga jo'natib yuborar ekan.

Shohning o'ttiz to'qqiz o'g'li tez orada o'ziga qayliq tanlab kelibdi, lekin ularning jasorati, bahodirliklari haqida hech gap bo'lmabdi. Navbat endi eng kenjasi Bodikanga kelibdi.

U otini egarlabdi, otasi o'z qilichini, o'q-yoyini beribdi, xizmatkor ajratibdi, qo'liga pul tutqazibdi.

Keyin: «Xudo o'z panohida asrasin», deb oq fotiha berib yo'lga uzatibdi.

Bodikanning yer yuzida bormagan joyi qolmabdi. Yer osti shohligiga tushibdi, qanchadan qancha devlar, pahlavonlar bilan kurashib, barini mag'lub qilibdi; qanchadan qancha yomonliklarni bartaraf etibdi va har safar jonini jabborga

berib g'olib chiqibdi. Tez orada xizmatkorlaridan ham ajrabdi, puli ham tugabdi. Endi bir o'zi sayohat qila boshlabdi.

Bir kuni qarshisidan go'zal bir saroy chiqib qolibdi. Saroy tosh bilan urilgan, temir bilan mustahkamlanganmish. Chor atrofi anvoyi gullarga to'la emish. Bir so'z bilan aytganda, saroyning ta'rifiga so'z yo'q emish. Bodikan saroyni aylanib chiqibdi-yu, biror tirik jonni uchratmabdi. Jilla qursa, derazadan birov mo'ralasa ham mayliydi. «Ey xudo, qayerga kelib qoldim», deb o'ylabdi. Oqshom cho'ka boshlabdi, Bodikan qarasa, birov kelayotganmish, boshi va tanasi temirdan, kiyimlari misdan, o'q-yoyi po'latdan, yurganda zarbidan yer lorsillarmish.

Haligi mahluq to'xtab atrofni hidlay boshlabdi, keyin: «Hov kimsan, nega berkinasan, chiq bu yoqqa, odam isi kelyapti, tog'larni, daralarni ov qilib o'lja topolmovdim,

mana, o'ljam oyog'im ostidan chiqib turibdi», deb g'o'ldirabdi. Bodikan uni o'q bilan o'ldirib bo'lmasligiga ko'zi yetibdi-yu, qarshisiga chiqibdi.

— Bu yerlarga oyoq bosishga qanday jur'at etding? Boxuxonni eshitmaganmisan?

— Nega eshitmas ekanman, eshitganim uchun ham seni ko'rgani keldim-da. Devlarni o'ldirdim, pahlavonlarni mag'lub etdim, endi sening joningni olmoqchiman.

Boxuxon unga nafrat bilan bosh-oyoq qarab chiqibdi-yu, keyin bir puflab yuborgan ekan, Bodikan maydonning narigi chekkasiga uchib borib tushibdi.

— Bodikan, bu yoqqa kel, qo'rqma, — g'o'ldirabdi Boxuxon, — qarab tursam mard yigit ko'rinasan, menga xizmatkor bo'l. Bilsang, o'qlaring menga ta'sir qilmaydi, ularni mayda ov uchun asrab qo'y, kerak bo'ladi.

Bodikan Boxuxonning hovlisiga kelibdi. Birmuncha vaqt ikkalasi birga yashabdi. Bir kuni Boxuxon Bodikanga dardini yoribdi. Gapiga qaraganda, bir kuni u daf'atan Quyosh shahrining qizini ko'rib qolibdi-yu, shundan buyon tinchini yo'qotganmish.

— Menga o'lim yo'q, buni o'zing ham bilasan. O'sha qizni qanday qilib qo'lga kiritishga aqlim yetmayapti, bu o'lkalarga kelganimga yetti yil bo'ldi, hecham ilojini topolmayapman. Balki sen urinib ko'rarsan? Eng yaxshi, eng zo'r otni tanlab ol, mana senga oltin, qimmatbaho toshlar, borib menga o'sha qizni olib kel...

Bodikan o'sha shaharga borishga, o'sha xalq tilini o'rganishga va shohning bog'boni bo'lib olib ishlashga, shohga yaqin bo'lib olishi uchun nima lozim bo'lsa barini qilishga va'da beribdi. Bodikan aytganini qilibdi. Shohning qizi vaqt-vaqti bilan derazadan mo'ralarkan-da, Bodikanga qarab qo'yarkan...

Ularning yuragi bir-biriga yaqin bo‘lib qolibdi. Oxiri qiz o‘z kanizaklaridan biri orqali seni sevaman, deb Bodikanga xat jo‘natibdi. Bodikan kanizga o‘zining ham shahzoda ekanligini, ko‘p devlar, pahlavonlarni jangda yengganligini, bu yerga esa uning yetti iqlimda tengi yo‘q go‘zalligini eshitib kelganligini, endi malikaning chiroyini ko‘rishga muyassar bo‘lganda uni bu baxtdan mahrum etmasligini tayinlabdi.

Bu shaharning xalqi jangari ekan. Hatto ayollari ham erkaklar bilan baravar qurol ishlata olar ekan.

Malika yigitga agar sevgisiga sadoqatli bo‘lsa, dengiz bo‘yiga sayrga chiqaman, o‘shanda meni olib qochsin, deb ma‘lum qilibdi.

Malikaning qirq kanizi dengiz bo‘yiga kuzatib boribdi. Shu paytda Bodikan quyunday paydo bo‘libdi-yu, shohning qizini burgut o‘ljasini opqochganday egarga o‘ngarib otini yeldirib ketibdi. Kanizlar og‘zilarini ochib qolaverishibdi. Keyin bu voqeani shohga ma‘lum qilishibdi. Shoh butun askari bilan quvishga tushibdi. Bodikan qizni ishonchli yerga yashirib qo‘yibdi-yu, orqaga qaytib shohning askarlariga qarshi hujumga tashlanibdi. Shoh askarlarini qirib tashlab, qizning qoshiga qaytib boribdi. Bodikan qizni otga o‘tqazib dengizdan o‘tibdi-yu, tez orada Boxuxonning saroyi ko‘rinibdi.

— Bodikan, — debdi qiz, — to‘g‘risini ayt: meni o‘zing uchun olib qochdingmi? Yo‘l bo‘yi miq etib og‘iz ochmading, sevging haqida gapirmading...

— To‘g‘risini aytsam, seni o‘zim uchun emas, Boxuxon uchun olib qochdim.

Shundan keyin ikkalasi ham Boxuxondan qanday qilib qutulish haqida o‘ylay boshlashibdi. Shu payt Boxuxon kelib qolibdi. Bodikanga ofarinlar aytibdi, malikani olib kelganiga o‘zida yo‘q suyunibdi-da, ularni qal‘aga taklif qilibdi.



Malika unga debdi:

— Men ota-onamga yetti yildan keyin turmushga chiqaman, deb qasam ichganman, agar qasamimni boʻzsam xudoning qargʻishiga uchrayman, shunga koʻnasanmi?

— Koʻnganda qandoq. Yetti yil-ku, qirq yetti yil kutishga ham tayyorman.

Ular shunga kelishishibdi. Tagʻin Bodikan ular bilan birga qolishiga va yetti yildan keyin toʻylariga bosh boʻlishiga ham kelishibdi. Vaqt oʻtgandan oʻtaveribdi, faqat Bodikan bilan malikaning koʻngillari xotirjam emas ekan. Boxuxonni oʻldirish qoʻllaridan kelmaydi, uni oʻldiradigan oʻq yoʻq. Qochib ham qutulolmaydi — quvib yetish Boxuxonga hech gapmas.

Bir kuni qiz Boxuxondan hech narsa bilmaganday soʻrabdi:

— Senga shuncha oʻq-nayza tegsayam pisand qilmaysan, buning siri nimada? Joning qayerda saqlanadi? Menga ishonmasang, bu, demak, meni sevmaganing boʻladi. Sevmasang, ochigʻini aytib qoʻya qol, menga bundan buyon yashashning hojati yoʻq.

Makkorlik oʻz yoʻli bilan-u, qiz qanday qilib Boxuxonning sirini bilib olgani yolgʻiz xudoga ayon. U qizga shunday debdi:

— Bu yerdan besh kunlik yoʻl narida oq togʻning etagida yengib boʻlmas oq buqa oʻtlab yuradi. U shu qadar zoʻrki, yaqiniga na vahshiy hayvon, na inson zoti yoʻlay oladi. U yetti kunda bir marta chanqaydi. Shunda togʻning tepasiga chiqib boradi. U yerda oq buloq bor. Mana shu buloqning suvi yettita oq toshdan yasalgan togʻoraga jo boʻladi. Buqa bu suvlarning hammasini bir simirishda tamom qiladi. Buqaning qornida oq tulki bor, oq tulkining qornida esa sadaf qadalgan quticha bor, shu qutichaning ichida yettita qush yashaydi. Mening jonim mana shunda saqlanadi. Oʻsha

yerda mening yettita sirim va butun qudratim yashiringan. O'sha buqani yengish, tulkini ushlab qornini yorish, undan keyin qutichani ochib ichidagi yettita qushni o'ldirish hech kimning qo'lidan kelmaydi. Mabodo biron-bir kimsa buqani o'ldirsa, tulki qochib ketadi, tulkini ushlab olib uni ham o'ldirsa, quticha bor, qutichani ochish bilan yettita qush har tarafga uchib ketadi... Mana shunaqa.

Malika bu gaplarning barini uqib olibdi-da, paytini topib Bodikanga oqizmay-tomizmay aytib beribdi.

— Mendan lozim bo'lgan narsani qildim, qolgani endi senga, sening jasoratingga bog'liq, — debdi u.

Kunlar ketidan kunlar o'tib boraveribdi. Bir kuni Bodikan Boxuxonning oldiga kelib eng yaxshi otingni berib tur, deb so'rabdi. Uzoq-uzoq o'lkalarga borgim, sayohat qilgim kelyapti, debdi. Boxuxon ham uning gapiga ko'nib eng yaxshi otini beribdi. Bodikan sehrgarlar, jodugarlar bilan gaplashibdi, ulardan maslahat olibdi. Temir kiyim kiygan pahlavon odamni qanday qilib yengish yo'llarini so'rabdi. Ular pahlavoni yengish yo'llarini tushuntiribdi.

Bodikan yetti yillik sharobdan yetti mesh olibdi-da, oq tog'ning cho'qqisiga ko'tarilib, oq toshdan yasalgan yetti tog'oraga quyibdi. Oq chashmaning og'zini esa berkitib qo'yibdi. O'zi shu yaqindan chuqur qazib tushib yotibdi. Oq buqa kelib sharobning hidini olibdi-yu, g'azabdan yetti terak bo'yi sakrab bo'kirgancha qochib ketibdi. Ertasi chanqab holdan toygan holda zo'rg'a kelibdi-da, sharobning hidini sezsayam ichaveribdi. Ichib bo'lgandan keyin kayfi oshib, bo'kira-bo'kira yiqilib tushibdi. Shu on Bodikan chuqurdan irg'ib chiqibdi-yu, o'tkir qilichi bilan buqaning boshini kesib tashlabdi... Bu paytda Boxuxon ovda ekan. Buqaning kallasi olingan paytda Boxuxon gandraklab ketib ko'z oldi qo'rayibdi.

— Oq buqani o‘ldirishdi... bilaman kim qilganini... ayb o‘zimda... Shohning qiziga sirni ochgan edim... U Bodikanga aytgan... Yo boshqa birovga aytgan... buqani o‘ldirishdi... demak, men ham endi o‘lishim kerak... shohning qizi oldiga yetib borolsam bo‘lgani... o‘ldiraman, menga bo‘lmagandan keyin boshqaga ham nasib etmasin...

Boxuxon saroyga oshiqibdi.

Bu vaqtda Bodikan buqaning qornini yoribdi, qarasa, tulki yotganmish. Tulkini mahkam ushlab olib uning ham qornini yoribdi.

Bu vaqtda Boxuxon aqldan ozibdi, burnidan qon kelibdi. Bodikan qutichani ochganda Boxuxonning quloqlaridan quyuc qon chiqib ketibdi, lekin u hali ham yura olar, saroyga Bodikanni kutib turgan qizning oldiga oshiqarkan. Bu vaqtda Bodikan ikkita qushning boshini uzib tashlabdi, shunda Boxuxonning ikki oyog‘i yurishdan qolibdi, yana ikkitasining boshini uzgan ekan, qo‘llari ishlamabdi, yana ikkitasining boshini uzgan ekan, Boxuxon yiqilib qorni kindigidan yorilib ketibdi. So‘nggi qushni Bodikan tosh bilan urib o‘ldiribdi. Shu on Boxuxon boshini qoyaga urib yoribdi-yu, burni va og‘zidan osmonga qora tutun ko‘tarilibdi. Shu bilan uning joni uzilibdi.

Bodikan saman otda qaytib kelibdi, qiz uni ko‘rib pastga tushibdi. Shunday qilib, ular parvardigorning inoyati bilan murod-u maqsadlariga yetibdilar.

## **ILON BILAN SHIVAR**

**B**ir zamonlar bir podsho o‘tgan ekan. Shoh bir kuni tush ko‘ribdi, tushida osmondan tulki yog‘ilayotganmish. U butun dunyoning donishmandlarini, tush ta‘birlovchilarini

chaqirib, qirq kun ichida tushimning ta'birini aytib bera-sizlar, yo'qsa, hammangni kallangni olaman, deпти.

Shu shoh yashaydigan shahardan sal narida bir er-xotin yashasharkan. Ular juda kambag'al bo'lib, suvga non botirib yeyisharkan. Xotini shohning farmonini eshitibdi-yu, borib tushning ta'birini aytib ber, deb erini qistayveribdi.


«Agar shohning tushini to'g'ri topolmasa, shoh erimning kallasini oladi, men undan bira to'la qutulaman-qo'yaman», deb o'ylabdi xotini.

Eri qarasa, qiladigan boshqa ishi yo'q, bir tayoqni qo'liga olibdi-da, yo'lga tushibdi. Ketayotgan ekan, bir kattakon ilon tosh tagidan o'rmalab chiqib yo'lini to'sibdi.

— Yo'l bo'lsin, Shivar? Qayoqqa? — debdi ilon.

— Qayoqqa ketayotganimni, o'zim ham bilmayman, — javob beribdi Shivar.

— Qo'rqma, Shivar, — yana gapga tushibdi ilon. — Qo'rqmay shohning oldiga kirib boraver. Aytginki: «Shohim, sen tushingda osmondan tulki yog'ilayotganini ko'rgansan. Bu, demak, atrofingni har xil laganbardorlar, yolg'onchilar o'rab oladi, degani. Ehtiyot bo'l, shohim, ular tag'in senga biron ziyon yetkazib yurishmasin», degin. Lekin Shivar, esingda bo'lsin, shoh bergan sovg'aning yarmi meniki bo'ladi, tashlab ketgin.



Shivar shoh huzuriga borib ilon nima degan bo'lsa, hammasini aytib beribdi. Shoh xursand bo'lib ketganidan vazirlariga g'aznadan to'rt tuyada oltin berishlarini buyuribdi. Keyin hamma donishmandlari, ta'birchilarini quvib yuboribdi-da, kambag'al Shivarni o'z tushlarining ta'birini aytuvchi qilib tayinlabdi.

Shivar oltinlarni olibdi, faqat ilon turgan yo'l bilan emas, boshqa yo'l bilan uyiga jo'nabdi.

Xotini oltinlarni ko'rib eriga mehribon bo'lib qolibdi. Oradan bir necha yil o'tibdi. Kunlarning birida shoh yana tush ko'ribdi. Tushida osmondan qon yog'ayotganmish. Shoh yana donishmandlarni chorlabdi. Keyin oxirida tushlarining ta'birini aytib beruvchi qilib tayinlagani o'sha dehqon Shivarni eslab qolibdi. Vazirlarga zudlik bilan saroyga Shivarni keltiringlar, deb buyruq beribdi. Xabarchilar uni topishib shohning farmonini aytishibdi. Shivar bu safar hushyor tortibdi: «Endi qandoq qildim? Birinchi safar ilon shohning tushi ta'birini aytib bergan edi. Men esa shoh bergan in'omning yarmini bermadim. Endi yana yordam ber deb ilonning oldiga borishim vijdotsizlik bo'ladi. Lekin nima qilay, shoh mening kallamni oladi-ku. Boshqa ilojim yo'q, vijdotsizlik bo'lsayam ilonning oldiga yalinib boraman, balki bu safar ham hojatimni chiqarar, nima bo'lsa bo'lar». Shivar shunday deb o'ylabdi-da, ilonning oldiga jo'nabdi.

Dehqon toshning oldiga borgan ekan ilon o'rmalab chiqibdi-yu, gapga tutibdi:

— Salom, do'stim Shivar. Ishlar qalay? O'tgan safar mening haqimni bermay ketib aldading, mayli, zarari yo'q. Senga bu safar ham yordam beraman. Shoh shu kecha bir tush ko'rди, tushida osmondan qon yog'ayotganmish. Bu dushmanlarning yomon fikrga borishgani... Hujum qilishmoqchi. Unga ayt: askarlarini jangovar holda tutib tursin,

shunda dushmanlari hech nima qilolmaydi. Do'stim Shivar, bu safar esingdan chiqarma, shohdan oladigan sovg'angning yarmi meniki bo'ladi.

— Xotirjam bo'l, — deb javob beribdi dehqon xursand bo'lib, keyin unga ta'zim qilib saroyga yo'l olibdi.

Tez orada shahar darvozasiga yetib boribdi. Vazirlar uni saroyga yetaklab kirishibdi. Shivar shoh qarshisiga chiqib shunday debdi:

— Uzoq yillar umr ko'rgin, shohim. Yomon tush ko'ribsan, tushingda osmondan qizil qon yog'ayotganmish. Bu dushmanlaring jangga hozirlik ko'rayotganidan nishona. Askarlaringni jangovar holatda tutib tur. Dushmanlaring hech nima qilisholmaydi.

Shoh Shivarga minnatdorchilik bildiribdi. Ilgarigisiga qaraganda ikki baravar ko'p sovg'a-salom bilan jo'natib yuboribdi.

Shivar sovg'aning ko'pligidan esi og'ib qolay debdi, ilonning maslahatlari-yu, unga bergan va'dasini unutilib qo'yibdi. Shivar o'ylay-o'ylay ilonni o'ldirmoqchi bo'libdi. «Shunday qilsam bu oltinlar faqat o'zimga emas, avlod-ajdodimgayam yetib ortadi. Ilon endi menga hech nimada yordam berolmaydi. Buning ustiga shoh ham har kuni tush ko'ra-vermaydi», deb o'ylabdi kambag'al. U shoh bergan oltinlarni tuyalarga ortibdi-yu, uyiga jo'nabdi. Tuyalar ilon yotgan toshning oldiga borganda ilon o'rmalab chiqibdi. Shunda Shivar katta bir toshni olib otgan ekan, ilon chap berib qolibdi. Tosh faqat uning dumini sal yaralabdi, xolos. Keyin u toshning tagiga kirib ketibdi.

Oradan ko'p yillar o'tibdi. Shoh yana tush ko'ribdi. Tushida osmondan bug'doy yog'ilayotgan emish. Shoh o'ylab o'tirmay Shivarga odam jo'natibdi. Shivar xabarchilarni ko'rib qotib qolibdi.

— Xotin, bu safar meni naq o‘lim kutyapti. Endi kallam ketadi.

Xotini uning gapini indamay eshitibdi. Javob ham bermabdi, faqat ichida suyunib qo‘yibdi. Dehqon o‘ylay-o‘ylay shunday qarorga kelibdi: «Rost o‘lar ekanman, ilonning qo‘lida o‘lganim ma‘qul. Men unga yaxshilikka yomonlik qilgandim». Shivar shunday deb kallasini solintirgancha ilonning oldiga boribdi.

— Salom mening tentak do‘stim Shivar. Shoh seni yana chaqirib qolishi mumkinligini o‘ylamovdingmi? Mensiz ishing bitmasligini tushunmovdingmi? — debdi ilon toshning tagidan o‘rmalab chiqarkan.

— Eh, og‘ayni, — deb javob beribdi dehqon. — Oldingda aybdorman, adolatsizlik qildim. Shuning uchun ham bosh egib keldim oldingga, nima qilsang ixtiyor senda.

Shunda ilon Shivarga javob berib debdi:

— Yo‘q, birodar, men yomonlikka yaxshilik bilan javob beraman. Gapimga quloq sol. Shohga borib ayt: sening tushingda osmondan bug‘doy yog‘ibdi. Bu mamlakatingda ma‘murchilik bo‘ladi, degani. Sen o‘zing esa bir umr farovonlikda, shod-xurramlikda yashaysan, degin. Esingdan chiqarma, shoh bergan in‘omning yarmini olib kel.

— Xotirjam bo‘l, — debdi dehqon. — Bu safar seni aldamayman.

Shivar shoh huzuriga borib tushining ta‘birini aytib beribdi. Shoh uni sharbat bilan siylabdi. Avvalgisidan ikki barobar ko‘p oltin berib jo‘natibdi. Shivar oltinlarni tualarga ortib yo‘lga tushibdi. Yo‘l bo‘yi shunday o‘ylab kelibdi: «Shu ilon menga qanchalar yaxshilik qildi, bir safar aldadim, ikkinchi safar o‘ldirmoqchiyam bo‘ldim, kel, bu gal halol bo‘lay. Oltinlarim yetarli. Shoh bu safar bergan in‘omlarning barini ilonga tashlab keta qolay».

Shivar katta toshning oldiga kelib ilonni chaqiribdi.

— Kel, haqingni ol, og‘ayni, — debdi u.

— Birodar, menga oltin kerakmas, — javob beribdi ilon. — Seni sinamoqchi bo‘lgandim, xolos. Birinchi gal shohning oldidan qaytganingda, yo‘lni boshqa yoqqa solib aldab ketding, chunki o‘sha yil tulki yili, aldanchilik yili edi. Shuning uchun sen meni aldading. Ikkinchi safar menga tosh otib qonimni to‘kkan yiling — qon yili edi, shuning uchun shoh dahshatli tush ko‘rgan. Bu yil esa ma‘murchilik, to‘qchilik yili, shuning uchun ochko‘zlik qilganing yo‘q. Oltinlar o‘zingga buyursin. Menga kerakmas, uyingga olib ketaver.

Ilon shunday deb g‘oyib bo‘libdi. Shivar uyiga kelib bir umr xursandchilikda, to‘kinchilikda yashabdi.

Lekin uning boyligidan bizgayam, sizgayam jinday tegmabdi.

## **AQL BILAN YURAK**

**B**ir kuni aql bilan yurak bahslashib qolibdi. Aql odam mening izmimda yuradi, desa, yurak mening izmimda yuradi, debdi.

Shuni aytib qo‘yish kerak-ki, ular bahslashib qoziga bori-shibdi. Oxiri kim haqligini mustaqil tarzda sinab ko‘rmoqchi bo‘lishibdi va buning uchun bir dehqonni tanlashibdi.

Tong salqinida dehqon qo‘shni olib yer haydagani dalaga yo‘l olibdi. Yerni endi hayday boshlagan ekan, qo‘shning tishi qattiq bir narsaga tegib to‘xtab qolibdi. Dehqon engashib qarasa, bir mis ko‘zaning ichi to‘la oltinmish. Dehqon o‘ylanib qolibdi. Buni nima qilaman endi? Buncha pul bilan boyib ketishim mumkin-ku, debdi.



Shu on kallasida boshqa fikr g'ujg'on o'ynabdi: «Buncha oltinim borligini o'g'rilar bilib qolsa-chi, dag'dag'a qilishadi, oltinim yo'q, deb turib olsam o'ldirib ketishlari hech gapmas».

Dehqon shunday degan cha ko'za oldida turib qolibdi, bundoq qarasa, yo'ldan qozi o'tib ketayotganmish.

«Yaxshisi shu oltinlarni qoziga berib qo'ya qolsammikin», deb o'ylab qozi tomonga yugurib ketibdi. Borib qozini dalaga olib kelibdi-yu...

Shu on aqli o'ziga kelib qolibdi. Dehqon nima qilayotganini bilib ko'zani orqasiga yashiribdi.

Keyin qozidan:

— Menga qara, sen qozisan, bundan chiqdi o'qimishli odamsan, ayt-chi, ho'kizlarimdan qaysi biri yaxshi? — deb so'rabdi. Qozi undan bu so'zlarni eshitib so'ka-so'ka ketib qolibdi. Qozi ketishi bilan aqlining o'rnini yuragi egallabdi. Keyin nega berib yubormadim oltinlarni, shuncha boylikni nima qilaman axir, qayerda saqlayman, deya yana o'ylay boshlabdi.

Dehqon kechgacha shu xayolda bo'libdi. Kechqurun qarasa, qozi qishloqdan shaharga qaytib ketayotganmish.

Oldiga chopqillab boribdi-da, dalamga yana bir marta borgin, deb yalinib-yolvoribdi. Qozi bunda bir gap bor, deb o'ylab rozi bo'libdi va qo'shchi bilan birga u haydayotgan maydonga kelibdi. Ular dalaga kirib kelishlari bilan dehqonning yana aqli kirib qolibdi. U aybdorlarcha kulib debdi:

— Xudo haqqi, mendan xafa bo'lma, dalaga qara, kechagi haydaganim ko'pmi, bugungisimi?

Qozi bu safar dehqonning bir nuqoti kam bo'lsa kerak, deb o'ylab o'z yo'liga ketaveribdi. Dehqon indamay bir chekkaga o'tirib nima qilishini bilmay qolibdi.

— E xudo! — deya qichqirib yuboribdi u oxiri alam bilan. — Oltinlarni qoziga nega berib yubormadim-a? Uni o'g'rilar urib ketmaydigan qaysi joyga yashiraman endi!

Ozgina o'ylab olgandan keyin ko'zani ertalab ovqat olib kelgan qopchiqqa solibdi-da, qo'ltig'iga qistirib uyiga kelibdi.

— Xotin, — eshikdan turib qichqiribdi dehqon. — Ho'kizlarni bog'la, oldiga pichan sol, men qoziga boraman.

Xotini qarasa, eri qopchiqda bir nimani yashirib turganmish, xotin ayyorlik qilib uning nimaligini bilib olmoqchi bo'libdi.

— Ho'kiz bog'lash ayolning ishi emas. Kechgacha qo'ylarga, sigirlarga qaraganim ham yetar. Yaxshisi, o'zing bog'lagin-da, keyin qayoqqa xohlasang ketaver.

Dehqon qopdagi ko'zani qo'yib ho'kizlarni molxonaga haydab ketibdi. Ularni bog'lab qo'shni joyiga qo'yguncha xotini qopchiqdagi ko'zani ochib, oltinni ko'rib qolibdi. Keyin oltinlarni olib o'rniga mayda tosh solib qo'yibdi. Er ho'kizlarni bog'lab bo'lgandan keyin qopchiqni ko'tarib shosha-shosha qozining oldiga jo'nabdi.

— Qozi, mana senga mendan sovg'a, ol, — debdi dehqon.

Qozi qopni ochib ko'rgandan keyin dehqon dovdirab qolibdi. Qozining jahli chiqib ketibdi. Keyin bu yerda bir gap bor, deb o'ylab dehqonni zindonga tashlashni buyuribdi. So'ng dehqon nima desa, nima qilsa, menga yetkazasan, deb ikkita odamni ayg'oqchi qilib qo'yibdi.

Dehqon zindonda o'tirib o'ziga hadeb ko'zaning shakli bundoq, qulog'i, burni bundoq edi, ichida mana buncha oltini bor edi, deb ming'irlab qo'li bilan ko'rsataveribdi. Ayg'oqchilar qoziga dehqon qo'li bilan unday, bunday qilib bir narsani ko'rsatyapti-yu, lekin hech nima deb gapirmayapti deb yetkazishibdi. Qozi dehqonni chaqirtiribdi.

— Zindonda qo‘ling bilan nimalarning shaklini chizib ko‘rsatding, gapir, — debdi. Yana dehqonning aqli o‘ziga kelibdi va kulib turib qoziga javob beribdi.

— Sening hamma joyingni o‘lchagan edim, masalan, boshing mana bundoq, bo‘yning buncha, qorning esa mana bundoq, soqoling mana buncha degandim, keyin kimning soqoli uzun ekan, qozinikimi yo echkinikimi deb qarichlab ko‘ruvdim.

Qozining jahli chiqib ketibdi, dehqonni osib o‘ldirishga hukm qilibdi.

Uning bo‘yniga sirtmoq solishganda dehqon yolvoribdi:

— Meni osmanglar, qozining oldiga olib boringlar, unga to‘g‘risini aytaman, — debdi.

Dehqonni qozining huzuriga olib kelishibdi.

— Dehqon, bor gapni ochiq ayt. Qulog‘im senda, — debdi qozi.

— Nimayam derdim. Agar bo‘ynimdan sirtmoqni olishmaganda o‘lishim tayin edi. Bor gap shu, — debdi dehqon tavoze bilan. Dehqonning gapidan qozi kulib yuboribdi-yu, o‘lim jazosini bekor qilibdi.

Aql bilan yurak o‘z-o‘zlaricha mustaqil ish olib borganlariga afsuslanishibdi. Shundan keyin insonni inson qiladigan narsa aql va yurak ekanligiga ishonch hosil qilishibdi-da, bundan buyon ikkalasi hamkorlikda, birgalashib ish olib borishga kelishishibdi.

## **UYDIRMA**

**B**ir zamonlar judayam kambag‘al, hech vaqosi yo‘q bir er-xotin yashashgan ekan. Ularning bor-yo‘g‘i bitta-yu bitta tovuqlari bo‘lib, u ham o‘ta ketgan badjahl, tepong‘ich ekan.

Mana shu tovuq ko'chadan o'tganga ham, ketganga ham hech kimga kun bermas ekan, birini cho'qisa, boshqasini teparkan. Qo'shnilar qo'rqqanlaridan o'zlarining uylariga bir chaqirim naridan aylanib o'tisharkan.

Tovuqning dastidan qishloq ahliga kun bo'lmay qolibdi. Chidab-chidab oxiri sabr kosalari to'lgandan keyin oqsoqolga shikoyat qilishibdi. Oqsoqol kambag'alni chaqirib yo tovug'ingni so'yib tashla, yo uni shunday joyga yashirib qo'yginki, ko'chaga chiqmasin, hech kimga ozor yetkazmasin, debdi. Kambag'al tovuqni so'ygisi kelmabdi. Bir eski tashlandiq omborxonaga tiqibdi-yu, eshikni qulflabdi, yoriq-mertik joylarini urib tashlabdi. Shu bilan bari tamom bo'libdi.

Bir kun o'tibdi, ikki kun o'tibdi, hafta, uning ketidan bir oy o'tibdi. Tovuuqqa na ovqat berishibdi, na suv. O'lsa o'la qolsin, biz ham qutulamiz, deyishibdi er-xotin. Bir kuni er uni eslab qolibdi.

— Hoy xotin, — debdi u. — Tovug'imizni batamom esdan chiqarib yubordik. O'lgan bo'lsa kerak, qo'lansa hid kelyapti. Borib olib tashlash kerakmidi?

— To'g'ri, — debdi xotini. — Bor, qara-chi, o'lgan bo'lsa ovloqroq joyga tashlab kel.

Er borib omborxonani ochibdi-yu, hayratdan qotib qolibdi: qarasa, omborxonana liq to'la tuxummish. Bu qanday tuxum, qayerdan kelib qolgan? Bilsa, barini tovug'i qilgan ekan.

Kambag'al oyog'ini qo'liga olib uyiga yuguribdi-yu, kelib xotiniga, xoh ishon, xoh ishonma, gap shunaqa, deb aytib beribdi.

Ular tuxumlarni savatlab xirmonga tashayverishibdi. Keyin ho'kizlarni xo'pga qo'shib yanchishga tushishibdi. Tushga qadar bitta qolmay tuxumlarning barini yanchib bo'lishibdi. Tuxumlardan jo'jalar chiqib ketibdi: bu yoqda tovuqchalar, bu yoqda xo'rozchalar sakrab yurishganmish.

Hatto bitta tuxumdan g'oz chiqibdi. U chiqa solib qochib ketibdi. Kambag'al qo'lini silkib yugurib ketibdi. Uning ketidan jo'jalar yugurishibdi. Chopib-chopib bir joyga borsa, bir dehqon g'ozini xo'pga qo'shib bug'doy yanchayotganmish.

— Høy birodar, — debdi kambag'al. — Bu axir mening g'ozim-ku.

— Qaydan bilay senikiligini, — debdi dehqon, — o'zi keldi. Qarasam, egasi yo'q ekan, ushlab olib xo'pga qo'shdim. Rostdan ham seniki bo'lsa, ola qol. Haqiga mana, ikki qop bug'doy, tekinga ishlagan bo'lmasin.

Kambag'al bug'doyni olibdi, og'zini kanop bilan tikibdi, g'ozga ortib uyiga jo'nabdi. Uyga kelib g'ozning ustidan yukni olibdi, qarasa, g'ozning beli yag'ir bo'lib qolibdi. Erxotin sarosimaga tushishibdi, hali u qo'shninikiga yugurishibdi, hali bu qo'shninikiga, alamlaridan yig'lab yuborayozishibdi, baribir yarani tuzatadigan dori topisholmabdi.

Ruhlari cho'kib o'tirishganda birov yong'oq yog'i davo bo'la-  
di, sursang shu zahoti tuzaladi, deb maslahat beribdi. Bu  
tomonlarda yong'oqning o'zi yo'q ekan. U yoqni qidirishibdi,  
bu yoqni qidirishibdi, hech qayerdan yong'oq topisholmabdi.  
Yugura-yugura madordan ketishibdi. Keyin qarashsa, bir  
kampir darvozasining oldida o'tirganmish.

— Xudo umringizni ziyoda qilsin, onajon, — deyishibdi  
ular, — uyingizning biron yerida bitta-yarimta yong'oq  
topilmasmikin. G'ozimizning beliga surish kerak ekan. Yax-  
shiligingizni bir umr esdan chiqarmasdik.

— Yong'oq qayoqda, — debdi kampir. — Esimda, yosh-  
ligimda otam Hindistondan yong'oq olib kelgandi. O'shanda  
hammamiz yegandik. Bir tishkovlagich topinglar, zora-mora  
tishimning orasida jinday qolib ketgan bo'lsa...

Er-xotin xursandchilikdan es-hushlarini yo'qotib qo'yay  
deyishibdi. Kattagina xodani ko'tarib kelishib, mana,  
buvijon, ushlang, deb qo'lga tutqazishibdi. Kampir xoda  
bilan tishining orasini kovlab jinday yong'oq olib beribdi.  
Bechoralar boyagidan ham suyunib ketishibdi. Kampirning  
qo'lini o'pib, yong'oqni cho'ntakka urgancha uyga qarab  
yugurishibdi. Uyda yong'oqni ezib g'ozning yag'ir bo'lgan  
beliga qo'yishibdi. Oradan bir kun o'tibdi, ikki, uch kun  
o'tibdi, hademay hafta, undan keyin oy o'tibdi. Bir kun  
qarashsa, g'ozning boshidan kattakon yong'oq o'sib chiqibdi,  
unda yong'oqchalar son-sanoqsizmish.

G'oz esa hech narsa bilmaganday yurganmish. Sahar turib  
ovqatlanish uchun o'tloqqa borarkan-da, kechqurun qaytib  
kelarkan. G'oz qayerga borib o'tlasa, o'sha yerda bolalar  
yong'oqqa toshmi, kesakmi, yog'ochmi otaverisharkan. Ke-  
saklar shoxlarning orasida ilinib qolarkan, nihoyat uning  
ustida keng bir o'tloq paydo bo'libdi. Odamlar bo'lsa bu  
o'tloqqa chiqishib bog' yaratib, sabzavot ekishibdi, yerni

haydab, bug‘doy, arpa ekishibdi. Cho‘ponlar sigir, qo‘ylarini boqibdi.

Bir kuni bir yo‘lovchi yong‘oqqa chiqib pushtaga kiribdi-da, tarvuz uzib olib yemoqchi bo‘libdi. Tarvuzga pichoq urgan ekan, pichoq na u yoqqa kirarmish, na bu yoqqa chiqarmish.

— Eh, pichog‘imdan ayrildim! — debdi yo‘lovchi, pichog‘ining asta-asta ichkari kirib borayotganini ko‘rib. Pichoq bora-bora ko‘rinmay ketibdi.

Yo‘lovchi kiyimini yechibdi-yu, pichog‘ini topish uchun o‘zini tarvuzning ichiga uribdi. U yoqqa boribdi, bu yoqqa boribdi, yo‘q, topolmabdi. Shu on birdan qo‘lida so‘yili bilan bir cho‘pon uchrab qolibdi.

— Hov birodar, — debdi cho‘pon, — kimsan, bu yoqqa nega tushding?

— Pichog‘imni yo‘qotib qo‘ydim, — debdi yo‘lovchi. — Bir qarab ko‘ray-chi devdim.

— Pichog‘ing bilan qo‘shmozor bo‘l, — debdi cho‘pon jahli chiqib, — men bu la‘nati tarvuzning ichida ikki yildan buyon otlarimni topolmay yuribman, sen bo‘lsang pichoq deysan?

Yo‘lovchi uning gaplaridan qattiq xafa bo‘libdi-yu, ikkalovi mushtlasha ketibdi, birini biri do‘pposlayveribdi. Ular shu qadar ko‘p urishishibdiki, tarvuz chayqalib bandidan uzilibdi-yu, yerga tushib yorilib ketibdi.

Uning ichidan bitta quyon chiqibdi-da, tiraqaylab qochib qolibdi. Quyon qochib ketayotganda dumining tagidan bir qog‘oz tushib qolibdi. Qog‘ozni olib qishloqqa olib kelishibdi. Pop qo‘liga olib qog‘ozni o‘qib ko‘rsa, unda shunday so‘zlar yozilgan ekan: «Uydirma, uydirma, uydirma!». Bundan chiqdi g‘oz haqidagi butun ertak ham va uning ustidagi o‘tloq ham uydirma ekan-da.

## HUNAR OLTINDAN QIMMAT

**B**ir zamonlar bir boy-badavlat shoh o'tgan ekan. U tez-tez vazir-u vuzarolaridan yashirincha eski-tuski kiyimlarni kiyib olarkan-da, qishloqlarni, shaharlarni aylanib yurarkan, odamlarning o'zi haqida nimalar deyayotganini bilgisi kelarkan. Bir kuni bir qishloqda shunday go'zal, bir qultum suv bilan yutgulik bir qizni ko'rib qolibdi.

Shoh saroyga qaytib o'z vazir, nozirlariga shunday debdi:

— Falon qishloqda bir go'zal qiz bor ekan, borib shoh senga uylanmoqchi, deb aytinglar.

Vazir-u nozirlar o'sha qishloqqa borishibdi, qizni topishibdi, uning go'zalligiga qoyil qolishibdi. Qizning otanasiga shoh qizingga uylanmoqchi, deyishibdi. Qizning otasi kambag'al dehqon ekan. Shoh oldida shunday hurmatga sazovor bo'lganiga ishonmabdi. Lekin shohning odamlari ishontirishibdi.

Shunda kambag'al debdi:

— Biz shohimizning fuqarolarimiz, nima desalar — shu.

Keyin qiziga qarab debdi:

— Qizim, shohimiz senga uylanmoqchi, sovchi qilib butun vazir-u nozirlarini yuboribdi, nima deb javob beray?

Qiz esa:

— Shohning nima hunari bor ekan? — deb so'rabdi.

— Aqling joyidami, qizim? Shohda qanday hunar bo'lishi mumkin? U mamlakatni boshqaradi, nima xohlasa shuni qiladi. Biz uning fuqarolarimiz.

— Yo'q, otajon, — debdi qiz. — Menga er bo'ladigan odam biron hunarni egallagan bo'lishi kerak. Bo'lmasa, unga tegmayman.



Vazir-u nozirlar qizning talabini borib shohga yetkazishibdi. Shoh hayron bo'libdi, iloji qancha, qizni sevgani uchun ham biron hunar egasi bo'lishga ahd qilibdi.

Shoh oson hunar bo'lmish gilam to'qishni o'rganmoqchi bo'libdi. Bu hunarni egallagandan keyin yaxshi bir gilam to'qibdi-yu, sovg'a qilib qizga yuboribdi. Gilam qizga yoqib tushibdi. Keyin ota-onasi bilan xayr-xo'shlashib vazir-nozirlar hamrohligida shoh saroyiga jo'nabdi.

Shoh yetti kecha-yu yetti kunduz to'y qilib, qizni nikohlab olibdi va birga turmush kechira boshlabdi.

Oradan bir yilmi, ikki yilmi o'tibdi, shoh yana eski-tuski kiyimlarini kiyib shahar, qishloqlarni aylangani chiqib ketibdi, xalqi o'zi haqida nimalar deyayotganini bilgisi kelibdi-da.

Ana shunday yurishlaridan birida shoh qaroqchilarning qo'liga tushib qolibdi. Qaroqchilar uning gilam to'qishga ustasi farangligini bilishibdi-yu, o'ldirishmabdi va boy bir savdogarga sotib yuborishibdi.

Savdogar uni bir qorong'i hujraga qamab qo'yib jun keltirib beribdi, shuni to'g'rilab gilam to'qi, deb buyuribdi. Shoh savdogarga dunyoda tengi yo'q gilam to'qib beribdi.

Savdogarning xotini eriga bir kuni shunday debdi:

— Gilamdo'zing bir kattakon gilam to'qisin. Uni shohga sovg'a qilib bor, seni quruq qo'yimas.

Savdogar shoh o'tirgan qorong'i uyga kelib shunday debdi:

— Shohga bir sovg'a qilish niyatim bor. Dunyoda tengi yo'q bir gilam to'qiysan. Uning kattaligi shohning saroyini enlasin, ninadek joyga yetmay ham qolmasin, ortib ham. Agar topshiriqni bajarmasang kallangdan judo bo'lasan!

Bu gapni eshitib shoh quvonib ketibdi. Chunki zalining qay darajada kengligini o'zi yaxshi biladi-da. U xo'jayini

talab qilgan gilamni tayyor qilibdi. Keyin gilamning bir chetiga ustalik bilan shunday soʻzlarni yozibdiki, uni faqat malika oʻqiy olishi mumkin ekan. Bunda shoh tutqunlikka tushib qolganini aytib, malikadan yordam soʻragan ekan.

Savdogar gilamdoʻzning ishidan xursand boʻlganicha gilamni koʻtarib saroyga joʻnabdi. Vazirlar, nozirlar malikaga savdogar bir gilam sovgʻa qilib kelganligi xususida xabar berishibdi. Malika gilamni shoh saroyining zaliga yoyibdi, uning zaldan ninaday joyi kam ham, ortiqcha ham emasligini koʻrib hayron boʻlibdi.

Keyin sinchiklab tekshirib, gilamning bir chekkasida qandaydir harflarni koʻrib qolibdi. Uni oʻqib erining boshiga tushgan musibatni bilibdi-yu, rangi oqarib ketibdi. Chunki shoh mamlakat boʻylab oʻsha yurishlarini tashlamagan, uydan chiqib baʼzan haftalab, oylab, hatto yillab yoʻq boʻlib ketarkan, lekin uning biron falokatga yoʻliqib qolish xavfi xayoliga kelmagan ekan.

Malika oʻsha zahoti gilamdoʻzni ehtiyot qilib saroyga keltirishlarini buyuribdi. Nozirlar, vazirlar savdogar bilan birga uning uyiga joʻnashibdi. Borib qorongʻi hujraga kiritibdi. Sochlari oʻsib, ozib-toʻzib ketganidan ular shohni tanishmabdi.

Gilamdoʻzni hammomga olib borishibdi. Yuvib-tarab, yangi kiyimlar kiydirib saroyga olib ketishibdi. Savdogar esa saroyda oʻzini qanday tutishini, shohga qanday taʼzim qilishini yaxshilab uqtiribdi.

Shoh saroyga kirishi bilan malika oʻzini uning bagʻriga otibdi.

— Hunar — oltindan qimmat deganlari haq gap ekan, — debdi shoh.

## UCH AKA-UKA

**B**ir zamonlar bir shoh o'tgan ekan. Uning mamlakatida bir ovsar xotin-u uning uchta o'g'li bo'lgan ekan. O'g'illar-ning biri dehqon, ikkinchisi bog'bon, uchinchisi to'quvchi ekan.

Bir payt mamlakatda shunday dahshatli ochlik, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan qahatchilik bo'libdi-ki, bunaqasini hatto dushmaninggayam ravo ko'rib bo'lmas ekan. Bir burda non uchun odamlar bir-birini g'ajib tashlash darajasiga boribdi. Bari bir biron natija chiqmabdi. Shunday kunlarning birida shohning tuyasi yo'qolib qolibdi. Tuyani sekin-asta ovsar xotinning bolalari uyga yetaklab olib kelishibdi. O'g'illar onalarining ovsarligini, bir kunmas-bir kun shohga borib sirni fosh qilib qo'yishini juda yaxshi bilisharkan. Shuning uchun onalarini kelinchakday qilib kiyintirishibdi, yuziga harir to'r parda yopishibdi-da, odat bo'yicha kelinlarday mehmonxonaning to'riga o'tqazib qo'yishibdi.

Aka-ukalar tuyani so'yishibdi, terisini shilishibdi, go'shtidan yaxshilab qovurma qilishibdi. Keyin qolgan go'shtni tilimlab chopib qotirib olishibdi-da, hech kim ko'rmaydigan yerga yashirib qo'yishibdi. Chunki birov sezib qolgudek bo'lsa, uzoq o'lkalarga surgun qilib yuborilishlari hech gap emas ekan-da.

Bu ishlarni saranjom qilishgandan keyin hamma o'z ishi bilan band bo'lib ketibdi.

Bu vaqtda shoh yo'qolgan tuyamni topib kelinlar, deb farmon beribdi. U yoqni qidirishibdi, bu yoqni qidirishibdi, hech qayerdan tuyani topisholmabdi. Oxiri ovsar xotinning bolalaridan so'ramoqchi bo'lishibdi. Birinchi bo'lib dalada yer haydayotgan qo'shchisidan so'rashibdi.

— Hoy birodar, — deyishibdi shohning xizmatkorlari. — Tuyaga ko‘zing tushmadimi?

— Ko‘rmayapsizlarmi axir, yer haydayapman-ku! — javob beribdi dehqon hech narsa bilmaganday.

— Biz sendan tuya ko‘rmadingmi deb so‘rayapmiz, sen bo‘lsang, yer haydayapman, deb javob beryapsan. Yer haydayotganingni ko‘rib turibmiz. Xo‘sh, ayt-chi, tuya ko‘rmadingmi?

— Bu omadga bog‘liq. Bir xil paytlarda rosa haydab tashlayman. Ayrim paytlarda haydagan yerim bebaraka bo‘ladi.

— Biz sendan axir qiyshiq bo‘yin, ikki quloqli, to‘rt oyoqli tuya haqida so‘rayapmiz, tuya.

— Hozircha haydayapmiz, keyin eksak kerak, undan so‘ng tekislaymiz, maysa bo‘lib chiqqanda sug‘oramiz, axir ko‘rib qolishi mumkin-ku.

Shohning odamlari bu jinni bo‘lib qolgan shekilli, tayinli gap chiqmaydi, kelinglar, ukasiga boraylik, zora undan aqlliroq gap chiqsa, deganday bir-biriga qarab olishibdi. Keyin bog‘bon ukasining oldiga borishibdi. Qarasa, u yong‘oq qoqib terayotgan ekan.

— Birodar, — debdi ular, — shohning tuyasi yo‘qolib qoluvdi, ko‘zing tushmadimi?

— Nima, ko‘rmisizlar, yong‘oq terayapman-ku, axir? — o‘rtanchasi ham o‘zini hech nima bilmaganga solibdi.

— Biz sendan tuya ko‘rdingmi, deb so‘rayapmiz, tuya ko‘rgan bo‘lsang ayt, bo‘lmasa yo‘q, de.

— Buyam omadga bog‘liq. Ba‘zi yillari bir ming dona yong‘oq bir tilla yoki ikki tilla bo‘ladi, har yili har xil.

— Senga tu-ya, deyapmiz bildingmi? Garangmisan?

— Bu yong‘oqlar hali yosh. Katta yong‘oqlar huv anuv yerda, yaqinda uning ham oldiga boramiz.

Shohning xizmatkorlari bir-biriga qarab olishibdi, o'zlaricha buning ham akasidan bir tuki kam emas ekan, yuringlar, kichigiga boraylik, zora undan ma'nilik gap chiqsa, deganday bir-biriga qarab olishibdi.

Keyin to'quvchining oldiga kelishibdi.

— Birodar, — deyishibdi ular. — Shohimizning tuyasi yo'qolib qoldi, ko'zing tushmadimi? Agar topib bersang, quruq qoldirmaymiz seni.

— Ko'zlaringni kattaroq ochinglar! Chok to'qiyotganimni ko'rmayapsizlarmi? — debdi kenjasi o'zini anqovlikka solib.

— Biz sendan tuya ko'rdingmi, deb so'rayapmiz, sen bo'lsang, boshqa narsalarni gapiryapsan.

— Bu endi omadga bog'liq. Ba'zi kunlari juda ko'p chok tikib qo'yaman, ayrim kunlari avvalgi kundagi ishining yarminiyam qilolmayman. Har kuni har xil bo'ladi.

— Og'ayni, esing joyidami o'zi? Biz sendan tuya haqida so'rayapmiz, sen bo'lsang, boshqa narsalarni valdirayapsan!

— Ba'zan bitta kiyim uchun butun boshli bir tilla berishsa, ba'zan bir yarim, hatto ikkita tilla berishadi.

Shohning odamlari bular bari bir go'r ekan. Yuringlar, onalarining oldiga boramiz, deya jahllari chiqib ketibdi.

Ular ovsar onaning oldiga kelishib, shunaqa gaplar, shohning tuyasi yo'qolgan edi, shuni ko'rmadingmi, deb so'rashibdi.

— Ko'rganman, — debdi ovsar xotin, — nega ko'rmas ekanman! O'g'illarim tuyani so'yishdi, go'shtini qotirib qo'yishdi, keyin yashirishdi.

— Qachon?

— Yuzimga harir to'r parda tortilgan kelinlik paytimda.

Shohning xizmatkorlari onalari ovsarlikda o'g'illaridan ham o'tib ketganini ko'rishibdi-yu, qo'llarini silkiib jo'nab

qolishibdi. Borib shohga tuyang osmonga chiqib ketganiniyam, yerning tagiga kirib ketganiniyam bilolmadik, hech qayerda yo'q, deb xabar berishibdi.

## **YOLG'ONCHI CHO'PON**

**B**ir shohning bir qizi bo'lgan ekan. Bir kuni u fuqarolariga: «Gaplarida zarrachayam to'g'riso'z bo'lmagan odamga qizimni beraman», deb e'lon qilibdi.

Yolg'on gapirib shohning qizini olaman degan odam juda ko'payib ketibdi. Shohning maslahatchilari hammaning gapidan to'g'riso'z topaverishibdi. Shaharda o'z baxtini sinab ko'rmagan hech kim qolmabdi. Faqat bittagina cho'pon qolibdi. U ham: «Ke, bir baxtimni sinab ko'ray, zora shohning qiziga ega bo'lib qolsam», deb o'ylabdi. Saroyga borib darvozani taqillatibdi. Darvozabon chiqib:

— Kimsan? — deb so'rabdi.

— Yolg'onchiman, yolg'on gapirishga keldim.

— Unday bo'lsa, kir.

Cho'pon kirib shoh huzurida hozir bo'libdi. Shoh undan:

— Kim bo'lasan? — deb so'rabdi.

— Umring ziyoda bo'lsin, shohim, men yolg'on so'zlashga keldim.

— Gapir.

— Shohim, men bir boy odamning o'g'li edim, — debdi cho'pon. — Ilgari sening otang kambag'al bo'lgan, keyin mening otamdan bir qop tilla qarz olgan. Sening tentak otang qarz olaverib qarzini qaytarmagan. Shu sababli otang boyib ketib shoh bo'lgan, mana, sen hozir shohlik davronini surib yotibsan. Mening otam esa kambag'allashib cho'pon bo'lib qolgan, mana, men ham cho'pon bo'lib yuribman.

Vazirlar:

— Nima bo‘pti, birov boyiydi, birov kambag‘al bo‘ladi, — deyishibdi.

— Jo‘na, ertaga kel, — debdi shoh cho‘ponga.

Cho‘pon ketib ertasiga yana kelibdi.

— Shohim, otam kambag‘allashib qolgandan keyin chet o‘lkalarga yollanib ishlash uchun ish qidirib ketmoqchi bo‘libdi. Keyin onasiga shunday debdi: «Xotin, o‘choqqa unna, ovqat qil, yo‘l oldidan qorinni to‘yg‘azib olay». Keyin bir yoqqa chiqib ketibdi. Onam o‘choqni yoqib holva pishiribdi. Onam otamni kutibdi, kutibdi, kelmabdi. Shundan keyin onam otamning hissasini ajratib tovoqqa solibdi va tokchaga qo‘yibdi. Otam kelgandan keyin: «O‘tir, ovqatingni yeb ol», — debdi. Otam yemabdi. «Mehmonda bo‘ldim, qornim to‘q», debdi.

Shunday deb chiqib ketibdi. Oradan o‘n ikki yil o‘tibdi. Men ham o‘n ikkiga to‘libman. Bir kuni «Otang kelyapti», degan xabarni eshitib qoldim. Men yugurib oldiga bordim-uyga birga kirib keldim. Otam: «Xotin, ovqat bormi, juda ochman», dedi. Onam: «Sabr qil, o‘choqqa o‘t qalayman hozir», dedi. Men: «Onajon, otam ketgan yili holva pishirganding. O‘shanda uning hissasini berkitib qo‘yuvding-ku, qani o‘sha? Olib kelib ber, yeb olsin», dedim. Onam ustini to‘rt enlik mog‘or bosib ketgan kosadagi holvani otamning oldiga olib kelib qo‘ydi. Otam holvaning ustidagi mog‘orni olib tashlab bir bo‘lagini og‘ziga solgan edi, issiqligidan tuflab yubordi. Holva yerga, undan dengizga borib tushdi-yu, dengiz vajillab qaynab ketdi. Quloq solsangiz, dengiz haliyam vishillab yotibdi.

Shohning maslahatchilari:

— Gapingning yarmi yolg‘on, xolos, — deb javob berishibdi.

Bu safar sho‘rlik cho‘ponni quvib chiqarishibdi.

Cho'pon uyiga kelib tol xivchinlaridan juda katta savat to'qib aravaga ortibdi. Aravaga ho'kizlarni qo'shib to'ppa-to'g'ri saroyga haydab boribdi.

Darvozani taqillatgan ekan, darvozabon:

— Kim u? — deb so'rabdi.

— Men, — javob beribdi cho'pon, — darvozungni och, shunday katta yolg'on to'qidimki, har qanday darvozaga sig'maydi.

Darvozani ochishibdi. Ulkan savatni zo'rg'a olib kirishibdi va uni saroy hovlisiga qo'yishibdi.

Cho'pon shohning qarshisiga kelibdi.

— Shohim, — debdi u, — Otang qarz olgan pullarni huv anovi savat bilan o'lchab ber.

Shoh atrofida turgan vazirlarning hammasi yugurib hovliga chiqishibdi.

— Shoh mendan qarzdor, deya yolg'on gapiryapsan, — deyishibdi ular.

— Yolg'on gapirayotgan bo'lsam, unda shohning qizini beringlar.

Shoh o'ylanib qolibdi: «Agar to'g'ri gapiryapsan desak, butun tillamdan, boyligimdan ajralaman, agar aldayapsan desak, qizimni berishga to'g'ri keladi».

Keyin cho'ponga qizini berishga qaror qilibdi.

Shunday qilib, cho'pon malikani olib uyiga ketibdi.

## **XABRMAN HAQIDA ERTAK**

**B**ir zamonlar bir er-xotin yashashgan ekan. Kunlarning birida er ko'chada ketayotib bitta tuxum topib olibdi. Tuxumni olib kelib derazaga qo'yibdi. Xotini o'choqqa olov yoqayotganda er debdi:



— Ko'chadan bitta tuxum topib oldim, derazada turibdi. Borib sen ham ikkita topib kelsang quymoq qilasan, yeymiz. Xotini derazaga kelib qarasa, tuxum o'rnida kattakon bir ilon yotganmish. Ilon xotinni ko'ribdi-yu, vishillab ko'zdan yo'qolibdi.

— Topdingmi? — so'rabdi eri.

— Yo'q!.. Derazaga tuxum qo'ydim devding, katta bir ilon bor ekan-ku?!

Eri ilonni ko'rgani kelsa, ilon chiroyli bir yigitga aylanib qolibdi. Bolaning qadri o'tgan er-xotin suyunib ketishibdi-yu, uni o'g'il qilib olmoqchi bo'lishibdi.

Oradan bir necha kun o'tgandan keyin yigit otasiga shunday debdi:

— Borib shohning qiziga sovchi bo'l.

— O'g'lim, — debdi otasi, — biz kambag'al bir odammiz, shoh qizini senga berarmikin?

Otasi qarasa, o'g'lining ahdi qat'iy, noiloj shohning sovchilar o'tiradigan kursisiga borib cho'kibdi. Shu zahoti shohga qandaydir bir kambag'al sovchilar kursisiga kelib o'tirganini xabar qilishibdi. Shoh uni chaqirishlarini buyuribdi. Kambag'al kelib shohga ta'zim qilibdi-yu, turaveribdi. Shoh undan:

— Nima niyatda kelding? — deb so'rabdi.

— Qizingizni o'g'linga unashgani keldim, shohim.

— Men qizimni kambag'alga bermasligimni bilasanmi? Ertalab turib uyingga boraman. Agar boyliging menikidan kam bo'lmasa, qizimni o'g'lingga beraman, bo'lmasa, o'g'lingning ham, sening ham kallangni olaman.

Otasi kelgandan keyin o'g'li:

— Shoh nima dedi? — deb so'rabdi.

Otasi shohning gaplarini birma-bir aytib beribdi. O'g'li debdi:

— Otajon, sen meni tuxum shaklida topgan joyingga borgin-da shunday degin: «Xabrman nomi bilan gapiraman. Ertaga mening boyligim shohning boyligidan ikki barobar ko'p bo'lib qolsin. Shoh esa menga qizini berishga rozi bo'lsin».

Ertasiga shoh yuvinmoqchi bo'lib qarasa, shaharda uylar ikki barobar ko'payib qolibdi, tag'in bular shoh saroyidan ham go'zalroq emish.

O'g'li otasiga debdi:

— Otajon, endi borib shoh qizining qo'lini so'ra.

Otasi shohning oldiga borib ta'zim qilibdi-yu, turave-ribdi.

— Mening birinchi shartim bajarildi, — dedi shoh, — endi ikkinchi shartim bor. Bajarsang, qizimni o'g'lingga beraman, bajarmasang, ikkovingni ham boshingni olaman.

— Ikkinchi sharting qanday? — so'rabdi kambag'al.

— Men ertalab turganimda shaharga yaqin joyda bir tog' bo'lsin, tog'ning o'ng tomonida qish, chap tomonida yoz, orqa tomonida kuz, old tomonida bahor bo'lsin. Agar shu shartim bajarilsa, qizimni beraman.

Otasi qaytib kelib shohning shartini aytibdi.

— Otajon, o'sha tuxum topgan joyga borib: «Xabrman shoh ertalab turganda shahar yaqinida bir tog' ko'rsin, o'sha tog'ning o'ng tarafida qish, chap tarafida yoz, orqa tarafida kuz, old tarafida bahor gurkirab tursin, deb aytdi», degin.

Shoh ertalab turib kattakon toqqa ko'zi tushibdi. Tog'ning o'ng tarafi qishmish, so'l tarafi yozmish, orqa tarafi kuz, old tarafida bahor yashnab odamlar ishlab yotganmish.

Shoh:

— Nima qilsayam qizimni oladigan bo'ldi-da! — debdi.

Otasi yana shoh qoshiga kelganda, u shunday debdi:

— Ikkita istagimni bajardilaring, endi uchinchisi qoldi, buniyam bajarsalaring qizim o'g'lingniki, bo'lmasa boshlaringni olaman.

— Uchinchi sharting qanaqa?

Shoh shunday debdi:

— O'zing bilasan, men shoh, sen oddiy odamsan. Sen mening qizimni nikohlash uchun yetaklab ketayotganingni odamlar ko'rishi sha'nimga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun kelin-kuyov ketadigan yo'lning ikki chekkasiga qalin qilib teraklar ekilgan bo'lsinki, o'g'ling qizimni olib borayotganini hech kim ko'rolmasin. Undan tashqari, uyimdan cherkovgacha va undan uyingning ostonasigacha gilam to'shalgan bo'lsin.

Otasi shohning uchinchi istagini aytganda o'g'li debdi:

— O'sha tuxum topib olgan joyingga borib ayt. Xabrman shohning uyidan cherkovgacha, cherkovdan bizning uyimizgacha bo'lgan yo'lning har ikki chekkasiga ikki-uch qatorlab qalin terak ekilgan bo'lsinki, yo'lning bu tomonidagi odam narigi tomonidagi odamning nima qilayotganini ko'rolmasin, undan tashqari, men shohning qizini nikohga uzatib, uygacha olib keladigan yo'lga gilam to'shalgan bo'lsin, deyapti, degin.

Shoh ertalab turib qarasa, bu sharti ham bajarilgan emish. Shundan keyin to'yga tayyorgarlikni boshlab yuboribdi. Shohning yana ikkita kuyovi bor ekan, endi ular Xabrman bilan surunkasiga uch kun chavandozlik qilishlari kerak ekan.

Xabrman o'z qaylig'iga shunday deb uqtiribdi:

— Uch kun chavandozlik qilamiz, opalaring bir-biriga men unashtirilgan yigit huv anavi deb meni ko'rsataverishadi. Sen esa indamay o'tir, senikiligimni gapirma.

Kuyovlar chavandozlikni boshlab yuborishibdi. Ikki yarim kun ikki katta opasi Xabrmanni ko'rsatishibdi, biri mening

qaylig'im o'sha desa, ikkinchisi, yo'q meniki, deb rosa tortishishibdi. Ikki yarim kun o'tgandan keyin kichik singillari chidab turolmabdi-da, yuragi toshib:

— Ko'rmisizlar! Xabrman-ku u axir, bekordan bekorga nima qilasizlar tortishib, — deb yuboribdi.

Shunda Xabrman otining boshini burib qaylig'ining oldiga kelibdi.

— Uchovingning ham ko'zlaring ko'r bo'lgani yaxshiydi bundan ko'ra. Endi men ketaman. Agar qiynalib qolsang, — u o'z qaylig'iga murojaat qilibdi, — oldimga kel. Avval Sim shahriga borasan, keyin Kumush shaharga, oxirida Oltin shaharga o'tsang meni topasan. Lekin meni oyog'ingdagi temir tufling, qo'lingda po'lat hassang yeyilib ketguncha yurganingdan keyin topishing mumkin.

Xabrman shunday deb ketib qolibdi.

Shohga kuyovi ketib qolgani xabarini yetkazishibdi. Shoh g'azablanib ketib qiziga shunday debdi:

— Kuyovimni topib ber hozir. U ketib qoladigan darajada nima deya qoluvding?

Shohning kichik qizi erkakcha kiyim kiyibdi. Oyog'iga temir tuflilari ilibdi, qo'liga po'lat hassa tutib hayyo-huv deb yo'lga tushibdi. Bir hafta yuribdimi, bir oy yoki bir yil yuribdimi, faqat parvardigor biladi. Oxiri temir tuflisi yeyilib ketgandan keyin bir buloqning boshiga yetib kelibdi-da, dam olmoqchi bo'lib o'tiribdi. Shunda u sim ko'za ko'targancha suv olgani kelgan odamlarni ko'rib qolibdi.

— Bu qanaqa shahar? — deb so'rabdi ulardan.

— Sim shahri, — deyishibdi unga.

— Bundan keyin qanaqa shahar keladi?

— Bu yerdan tong otguncha chiqib ketsang kun botarda Kumush shaharga yetib borasan.

— Undan keyin qanaqa shahar keladi?

— Undan yana bir kun kechgacha yursang Oltin shaharga borasan.

Qiz yo'l ko'rsatganlari uchun ularga minnatdorchilik bildiribdi-da, Kumush shaharga, ertasiga kechqurun Oltin shaharga yetib boribdi. U bir chashma bo'yida o'tirib oltin ko'za ko'targan qirq qizni ko'rib qolibdi. Qiz bir qultum suv beringlar, deb xudoning zorini qilibdi, lekin ular berishmabdi. Shunda, ularning biridan:

— Bu suvlarni kimga olib ketyapsizlar? — deb so'rabdi.

— Shohimizning o'g'li odamzod yurtiga borib, — deb javob beribdi u, — o'sha yerda shoh qiziga uylanibdi. Endi u xotinini sog'inganidan otash bo'lib yonyapti. Biz qirq qiz esa tinimsiz suv tashib unga sepib turamiz, bari bir tinchi-mayapti.

Shohning qizi qaylig'i hadya etgan uzukni asta barmog'idan chiqaribdi-da, sezdirmay ko'zalardan biriga tashlab yuboribdi. Shahzodaga suv sepishayotganda uzuk dumalab tushibdi.

Shahzoda uzukni qo'liga olib:

— Yetar bas, — debdi. Keyin:

— Uzuk qaysi ko'zadan tushdi? — deb qo'shib qo'yibdi.

Qizlar uzuk tushgan ko'zani ko'rsatishibdi.

— Suv olayotganingda chashmaning boshida kim bor edi?

— Qandaydir bir yigit, — debdi qiz.

— Borib o'sha yigitni chaqirib kel, — deb buyuribdi shahzoda. Xabrman bu yigit kiyimidagi qiz o'zining qaylig'i ekanligini ko'rib uni yashiribdi. Lekin Xabrmanning otasi buni sezib qolibdi. Shunda Xabrman xotiniga debdi:

— Otam sen kelganingni sezib qoldi, shuning uchun ertaga huzuriga chaqirib tovonimni qashib qo'y, deydi. Ehtiyot bo'l, tizzangni oyog'ining tagiga qo'yma. Bir tepganda yetti gaz yerning tagiga tiqib yuboradi. O'sha yerda to'sin